

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 338.482

BAXTIYOROV SHOHZOD SHERZODBEK O'G'LI

**“MINTAQADA TURISTIK-REKREATSION KLASTERLARNI
SHAKLLANTIRISH YO`NALISHLARI”**

Ixtisoslik: “Turizm” (faoliyat turlari bo'yicha)

“Turizm” mutaxassisligi magistri akademik darajasini olish uchun
DISSERTATSIYA ISHI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
qo'yildi

“Turizm” kafedrası mudiri
dots. D.Xudayberganov _____
« ____ » _____ 2020 y

Ilmiy rahbar
_____prof. B.Ruzmetov

Ilmiy maslahatchi
_____prof. A.Qadirov

Urganch – 2020 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB: MINTAQADA TURISTIK-REKREATSION KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIK ASOSLARI	10
1.1. Milliy iqtisodiyotda turizm sohasini o`rni	10
1.2. Rekreatsion-turistik klasterlarni shakllantirish uslubiy asoslari.....	16
1.3. Turistik-rekreasiya ob`ektlaridan foydalanishni xorij tajribasi.....	23
1-bob bo`yicha xulosa.....	33
II-BOB: O`ZBEKISTON MINTAQALARIDA TURISTIK-REKREATSION OB`EKTLARINI RIVOJLANISH DARAJASI	34
2.1. Mintaqalarda turistik-rekreatsion ob`ektlar salohiyatini baholash.....	34
2.2. Turistik xizmatlar bozorida rekreatsion turizmni o`rni	41
2.3. Mintaqalarda turistik-rekreatsion ob`ektlardan foydalanish darajasi	45
2-bob bo`yicha xulosa.....	51
III-BOB: XORAZM VILOYATIDA TURISTIK-REKREATSION KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH YO`NALISHLARI	52
3.1. Xorazm viloyatining turistik salohiyatini baholash	52
3.2. Xiva turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish manbai	60
3.3. Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish istiqbollari	70
3-bob bo`yicha xulosa.....	75
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	82

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Turizm hozirgi paytda jahon iqtisodiyotining yetakchi sektorlaridan biriga aylandi. Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra «...turizm daromadlilik darajasi bo'yicha uchinchi, tovarlar va xizmatlar eksportida to'rtinchi o'rinda, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'rtacha 10 foizni tashkil etmoqda...»¹. Bu soha zamonaviy dunyo xo'jaligidagi eng yirik tarmoqlardan biridir, u «dunyo YaIMning 10,3 % ini tashkil etadi va unda 260 milliondan ortiq ish o'rinlari mavjud»². Rekreatsiyaning yuqori darajada rivojlanishi inson mexnat faoliyati davomida yo'qotgan jismoniy, aqliy, ruxiy kuchlarini qayta tiklash bilan shug'ullanuvchi faoliyatlarni jonlantirishga imkon berdi. Evropa davlatlarida, xususan, Amerika, Osiyo, Okeaniadagi ilmiy-texnik taraqqiyot, inson mexnat faoliyati davomida ilmiy texnika yutuqlaridan keng foydalanishi xam rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Bugun turizm va rekreatsiya nafaqat savdo xizmatlarining bir turi sifatida namoyon bo'lmoqda, balki turistik-rekreatsion sohaning barqaror rivojlanishi yangi ishchi o'rinlari yaratish hamda unga o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishni talab etadi.

Jahonda turistik-rekreatsion xizmatlar bozorini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishida qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, turizm va rekreatsiya sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratuvchi ko'plab mamlakatlarning o'ziga xos hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rekreatsiyani rivojlantirish, hududlarga mos bo'lgan optimal rekreatsiyani rivojlantirish variantlari ishlab chiqildi. Ularning hudud iqtisodiyotidagi o'rnini oshirish, rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish yo'llari, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri, rekreatsiya tarkibiga kiruvchi rekreatsiyaning turlari va yo'nalishlarini o'rganish va tadqiq qilish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, turistik-rekreatsion ob'ektlarni

¹ Бутунжаҳон туризм ташкилоти (UNWTO) расмий веб-сайти маълумотлари. UNWTO World Tourism Annual Report 2018.

² Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси: Ўзбекистон туризми. - Т., 2018. - 15-16 б.

rivojlantirish, bu sohada klasterlar tashkil etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O`zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar turizm sohasida salmoqli o`zgarishlarga sabab bo`ldi. O`zbekistonning 2030 yilgacha turizmni rivojlantirish strategiyasida maqsadli vazifalar sifatida "...turizmning ijtimoiy rolini oshirish va joriy qilish, shu jumladan ijtimoiy, davolash-sog'lomlashtirish (rekreatsion), bolalar va yoshlar turizmini rivojlantirish..."³ vazifalari belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni 2020 yil 24 yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasida "...turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo`lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga etkazishdan iborat. Ma'lumki, qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020 yilda O`zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritdi. Biz bunday imkoniyatdan unumli foydalanishimiz kerak. Katta salohiyatga ega bo`lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob`ekti mavjud bo`lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan", deb ta'kidlangan edi.

Mazkur vazifalarning bajarilishi rekreatsiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, turistik-rekreatsion zonalar, klasterlarni barpo etish, aholini yangi ishchi o`rinlari bilan ta'minlash maqsadida turistik-rekreatsion bozorni chuqur tahlil qilishga asos yaratadigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko`rsatmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni, 2017 yil 16 avgustda PQ-3217-son «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo`yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to`g`risida»gi, 2018 yil 7 fevralda PQ-3514-son «Ichki turizmni

³ <http://uzbektourism.uz/>

jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 5 yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog’ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi “2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi PQ-2953 sonli qarori xamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur magistrlik dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Rekreatsiya va turizm sohasi bilan bog'liq nazariy-uslubiy masalalar bo'yicha F.Perm, I.G.Tynen, V.Launhard, W.J.Reilly, P.D.Konvers, L.Tinbergen, L.Crampton, R.I.Wolfe, P.F.Wilkinson⁴ xorijlik olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo`stligi (MDX) davlatlarida rekreatsiya va rekreatsion faoliyatda gravitatsion modellarni qo'llash sohalari bilan A.S.Kuskov, V.L.Golubeva, T.N.Odintsova, E.G.Kropinova, Y.V.Kokina, D.S.Xazova, P.N.Egorov, I.A.Morova, I.Y.Polyanskaya, A.N.Dunets, S.V.Lazarevskaya, M.A.Morozov, N.S.Morozova, G.A.Karpova, L.V.Xoreva⁵ va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O`zbekistonda turistik-rekreatsion sohani rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari B.N.Navro`z-Zoda, U.Sh.Yakubov, M.M.Muxamedov, M.K.Pardayev, M.E.Pulatov, KJ.Mirzaev, I.S.Tuxliev, B.X.Turayev, O.X.Hamidov, D.X.Aslanova, N.S.Ibragimov, B.Sh.Safarov, N.E.Ibadullayev, Z.Dj.Adilova,

⁴ Гранберг А.Х. Основы региональной экономики. Учебник. -М.:ГУВШЭ, 2003.- 61 с; Reilly W.J. The law of retail gravitation.— New York.: 1931.; Лимонов Л.Э. Региональная экономика и пространственное развитие.— М.: Юрайт, -2015.; Каукин А.С, Идрисов Г.И. Пространственная гравитационная модель внешней торговли. -М.: -2012,-8с; Crampton, L. The gravitation model. A tool for travel market analysis (Гравитационная модель. Инструмент анализа рекреационного рынка) / Crampton L // Rev du tourisme. - 1965. 20-27 p.; Wolfe, R.I. The inertia model (Модель инерции) / Wolfe R.I // Journal of Leisure Research. - 1972. - 85-87p.; Wilkinson, P.F. The use of models in predicting the consumption of outdoor recreation (Использование моделей для предсказания уровня потребления рекреации на свежем воздухе) / Wilkinson P.F // Journal of Leisure Research. - 1973. - 34-48 p

⁵ Кропинова Е.Г. Теория и практика формирования и развития трансграничных туристско-рекреационных регионов, дне. на уч. степ. г.ф.д.- Калининград, 2016 г. -176 с

M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, Sh.R.Fayziyeva, M.T.Alimova, Z.I.Usmanova, G.R.Alimova, A.T.Mirzayevlarning⁶ ilmiy-tadqiqot ishlarida ko`rib chiqilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oily ta`lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog`liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi hamda PZ-201709202 "Xorazm viloyati va Xiva shahrining turistik salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada oshirish strategiyasini ishlab chiqish" davlat amaliy granti doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqada turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish yo`nalishlari bo`yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

-«rekreatsiya», «rekreatsion faoliyat» va «rekreatsion landshaft», «rekreatsion rivojlanish markazlari», «kichik turizm zonalari» tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish;

⁶Навруз-Зода Б.Н, Ибрагимов Н.С, Навруз-Зода Ш.Б. Туристик худуд ракобатбардошлиги. монография - Бухоро, 2017.-105 б.; Якубов У.Ш., ВахобовХ Рекреацион георафия асослари. Рисола. -Т.: "Фан ва технологиялар", 2012.-77 б.; Мухаммедов ва бошқалар. Хизмат курсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари -С: 2007.-299 б.; Пардаев.М.К, Атабаев Р. Туристик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. -Самарқанд: СамИСИ, 2006.-137 б.; Пулатов М.Э.Мирзаев КЖ.Султонов Ш.А, Шавкиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм гагисодиёти). Уқув кулланма. -Т.:Фан ва технология, 2018.-296 б.; Болтабаев.М.Р, Тухлиев И.С, Сафаров Б.Ш, Аб духам ид ов С.А. Туризм: назария ва амалиёт. Дарслик. -Т.: Фан ва технология. 2018- 103 б.; Тураев. Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом. Автореферат дис. на уч.степ. д.э.н.-Т.2011.-17 ст.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: дис. канд. экон. наук- Самарқанд: СамИСИ, 2006.-155 с; Асланова Д.Х. Модели формирование туристического кластера за рубежом. Самарқанд: Сервис, 2013.-Xs 1 .4-9 б.; Сафаров Б.Ш. Минтақавий туризм хизмат бозорининг иқтисодий механизмини такомшишггириш. иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. Самарқанд. 2011. 21 б.; Ибадуллаев Н.Э. Туристик ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имкониятлари (Самарқанд вилояти мисолида), иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси Самарқанд. 2010. 13 б.; Adilova Z.D, Alieva M.T, Norchaev A.N, Xursandov KM. Turizm menejmenu: o'quv qo'Uanma.-Т.: TDIU, 2011.-116 б.; Норчаев АН Халқаро туризмни ривожланишининг иқтисодий усьишга таъсири (Испания мисолида): иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси.-Т.: 2004.-136 б.; Файзиева Ш.Р. Узбекистонда туризм ривожланишининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. - Т.,2006.-156 б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида): иқтисодиёт фанлари доқгори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. С: СамИСИ,2017.-24 б.;Усманова З.И. Узбекистонда туристик — рекреацион хизматларни ривожлантириш хусусиятлари ва тенденциялари: иқтисодиёт фанлари буйича фалсафа доктори (phd) диссертация.- С: СамИСИ,2018.-71 б.; Алимова Г.Р. Минтақани ијтимоий-иқтисодий ривожлантиришда рекреацион-туристик салохиятдан самарали фойдаланиш (Тошкент вилояти мисолида): иқтисодиёт фанлари буйича фалсафа доктори (phd) диссертация .-Т.: УзМУ,,2019.14-15 б.; Мирзаев А.Т. Узбекистон худудларида туристик-рекреация объектларидан самарали фойдаланиш механизмини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари буйича фалсафа доктори (phd) диссертация.- С: СамИСИ,2019.-13 б.

-rekreatsiyani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini aniqlash va xorij tajribasini o`rganish;

-mamlakatda rekreatsiyadan foydalanishning hozirgi xolatini tahlil qilish;

-turistik-rekreatsion klasterlashtirish, yangi turizmni mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sirini aniqlash;

-Xorazm viloyatida rekreatsion-turistik ob`ektlar, zonalar, klasterlarni optimal joylashtirish imkoniyatlarini baholash va takliflar ishlab chiqish;

Tadqiqotning ob`ekti sifatida Xorazm viloyatidagi turizm va rekreatsiya sohasidagi subyektlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini Xorazm viloyatidagi rekreatsiya faoliyati bilan shug`ullanish davrida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda statistik tahlil, omilli tahlil, ekspert baholash, ekonometrik tahlil, so`rov hamda tanlanma kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-Xorazm viloyatida «Xiva turistik klasteri», «Amudaryo ekoturistik zonasi», «Xazorasp tarixiy-arxeologik parki» kabi turistik-rekreatsion ob`ektlarni optimal joylashtirish variantlari ishlab chiqilgan;

-Mintaqa uchun raqobatbardoshlikning «7-M» kontseptual modeli asosida rekreatslarni jalb etishning mono, mini, mikro, meta, mezo, makro, megadarajadagi rivojlanish yo`llari ishlab chiqilgan;

-Xorazm viloyatida turizm ob`ektlarining faoliyati rivojlanishini ta'minlovchi 2020-2024 yillarga mo`ljallangan konsepsiya ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

-O`zbekiston mintaqalarida, xususan, Xorazm viloyatida rekreatsiyadan foydalanishda rekreatsion ob`ektlarni joylashtirishda taklif etilgan optimal joylashtirish varianti orqali bitta turistik-rekreatsion zona, uchta tibbiyot va Xiva turistik klasteri, bitta tarixiy-arxeologik park tashkil etish va rivojlantirish yo`llari taklif qilingan;

-rekreatsiyani mintaqa iqtisodiyotidagi rolini oshirish, rekreatsion faoliyatdagi mavsumiy omillar ta'sirini o'rganish, rekreatsion salohiyatni aniqlash maqsadida rekreatsiya ob'ektlarini guruhlarga ajratish taklif etilgan;

-rekreatsion ob'ektlar xar mavsumda faoliyat olib borishini ta'minlash va yangi rekreatsion ob'ektlar qurish, mintaqalarning yangi rekreatsion zaxiralarini aniqlash, rekreatsion ob'ektlar rekreatsion jozibadorligini oshirish orqali mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini yanada oshirish konsepsiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning rekreatsiya sohasi borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va umumlashtirish, muallifning ilmiy-tadqiqot natijalari, rasmiy statistik manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi, turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqdanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mintaqada rekreatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda takliflar Xorazm viloyatiga xorijiy va milliy turistlar oqimining va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda turistik-rekreatsion ob'ektlar rolining oshishi, mintaqaviy dasturlar va turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mintaqada rekreatsion faoliyatni rivojlantirish va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni 2020 yil 24 yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqada turistik rekreatsiyadan foydalanish bo`yicha olingan ilmiy natijalar asosida Xorazm viloyat Xokimligi, viloyat turizm departamenti tomonidan loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish uchun qabul qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o`tkazilib, maruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo`yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta monografiya, O`zbekiston Respublikasi ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, 6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy Scopus jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning xajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo`lib, uning xajmi 82 betdan iborat.

I-BOB. MINTAQADA TURISTIK-REKREATSION KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Milliy iqtisodiyotda turizm sohasini o`rni

Jahonda globallashuv jarayonlari yuz berayotgan hozirgi davrda mamlakatlarning taraqqiyotida har bir soha kabi turizmning o`rni va nufuzi yuqori bosqichga ko`tarilmoqda. Turizm tarmog`i - shaxsni rivojlantirib, odamlarning ma'naviy va jismoniy talabini qondirishga mo`ljallangan bo`ladi; turizm ma'lumot almashish va o`rganishning samarali usuli hisoblanadi; turizm yirik ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechishga yordam beradi. Chunki, u iqtisodiyot va jamiyat hayotining boshqa muhim tomonlarini rivojlantirish va daromad olishning yuqori samarador tarmog`i hisoblanadi. Dunyo aholisining tafakkuri, dunyoqarashi, qiziqishlari hamda daromadlari o`sib borayotganligi natijasida davlatlarning tarixi, hududning go`zal maskanlari, qadimiy obidalarini tomosha qilish, xalqlarning urf-odatlarini, qadriyat hamda an'analarini yaqindan bilish hamda madaniy dam olishlari uchun sayohatlar uyushtirish jarayoni odat tusiga kirib bormoqda.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining serdaromad va jadal o`suvchi tarmog`i sifatida tariflanib, turistik xizmatlarga bo`lgan talab kundan-kunga o`sib borishi natijasida jahon yalpi mahsulotining 10 foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, yaratilayotgan ish o`rinlarining har yettinchisi turizm sohasidagi ish o`rinlariga to`g`ri keladi. "Uchinchi dunyo" mamlakatlari bo`yicha pul mablag`lari tushumining 50 foizi va ish bilan bandlik darajasining 80-90 foizi turizm sohasiga tegishli. Shu sababli, dunyoning ko`pgina mamlakatlari turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko`ra, so`nggi yillarda xalqaro turistlar oqimi 4 barobar, valyuta tushimi esa 25 barobarga oshgan. Raqobatbardosh turizmni yo`lga qo`yish, xalqaro turizm bozarida o`z mavqeiga ega bo`lish uchun mamlakatlar o`zaro bellashmoqdalar.

Globallashuv jarayoni natijasida turizm serdaromad soha bo`lish bilan bir qatorda ayrim turistik hududlarda muammolar ham vujudga kelmoqda. Jumladan, ekologik muammolar (tabiatning ifloslanishi, ekotizmning buzilishi), ijtimoiy (bandlik masalasi, giyohvandlik), iqtisodiy va boshqalar. Shunga qaramasdan, XXI

asrda aynan turizm sohasi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiruvchi eng samarali usullaridan biri bo`lib qolmoqda. Turizm dunyodagi xilma-xillikning birligini shakllantirib, unda hammaning erkin rivojlanishi va har kimning erkin faoliyati uchun zamin yaratuvchi sohadir.

So`ngi yillarda ko`pgina mamlakatlarda raqobatbardosh iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda klasterli yondashuv asosiy vositaga aylandi. Klaster strategiyasi mavjud va potentsial klasterlarni aniqlashga, ularning raqobatbardoshligini, ishbilarmonlik va investitsion faolliklarini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Analitiklarning fikriga ko`ra Finlandiyada ana shunday siyosatning qo`llanilishi, mamlakatning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi (2003-2005 yillar). Klasterli rivojlantirish konsepsiyasi bugungi kunda O`zbekiston zamonaviy iqtisodiyotida ham keng qo`llanilmoqda. Jumladan, qishloq xo`jaligi, ishlab chiqarish kabi sohalarga klasterli yondashuvlar keng tatbiq etilmoqda. Xususan, turizm industriyasining barqaror rivojlanishida ham klasterli yondashuv muhim rol o`ynaydi. Ayniqsa, sayyohlik faoliyatini yo`lga qo`yish va modellashtirishning istiqbolli yo`nalishlaridan biri bu klasterli yondashuvdir. Ya'ni, faoliyati bir xil biznes sohasida yuritadigan korxonalar, firmalar, tashkilotlar va muassasalarning integratsiyalashgan guruhlar klasterli yondashuvni vujudga keltiradi. Bunday foyiat asosan rivojlagan davlatlarga xos bo`lib, bugungi kunda o`tish davridagi davlatlar tomonidan ham keng qo`llanilmoqda.

Klaster nazariyasining asosiy konsepsiyasi muayyan maqsadni amalga oshirish uchun individual elementlarni bir butunga birlashtirishdir. Raqobat bozori kuchayishi natijasida klasterli tizim vujudga keladi. Turizm industriyasida klaster quyidagi sohalarni o`z ichiga oladi:

- tabiiy va madaniy me'ros ob`ektlari (sayyohlik qadriyatlari);
- sayyohlarga xizmat ko`rsatish bilan bog`liq infratuzilma ob`ektlari;
- ta'lim muassasalari (kadrlar tayyorlash);
- turizm sohasidagi boshqaruv organlari;
- loyiha va ilmiy muassasalar.

Turistik klaster rivojlanishi uchun uning ishtirokchilari o`zaro birlashishlari, davlat esa ayrim biznes strukturalarini emas, balki hududiy klaster ishtirokchilarining qiziqishlarini o`z ichiga olgan loyihalarni qo`llab-quvvatlashi lozim.

Klaster tizimi jahon iqtisodiyotida rakdbotbardoshlikni oshirib, mintaqaviy, transchegaraviy va mahalliy klasterlarni o`z ichiga oladi. Jumladan, hududiy klasterlar tarkibiga kiruvchi firmalarning samarali faoliyatiga zamin yaratadi. Buning asosiy sababi shundaki, ularning hamkorlikdagi faoliyati muvofiqlashtirilib, axborot almashinuvi va innovatsiyalarni joriy etish masalalari osonlashadi, xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmalardan foydalanish hamda kadrlar tayyorlash masalalari tizimli hal etiladi. Jumladan, mamlakatimizda Toshkent viloyati bo`ylab ekoturizm klasterini, Samarkand, Buxoro va Xiva shaharlarida tarixiy-madaniy sayyohlik turizmi klasterini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori.

Mintaqaviy klasterlarni shakllantirish maxsus soliq, tizimi va investitsiyalar, xizmat ko`rsatish hamda muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar bilan bog`liq; yangi firmalarni yaratish uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltiradi. Masalan, Qozog`iston va O`zbekiston o`zaro hamkorlikda Buyuk Ipak Yo`li yo`nalishida turistik loyihalarni kengaytirish orqali sayyohlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratish bilan bir vaqtda turistlar oqimining oshishiga erishish mumkin.

O`zbekistonda sayyohlik respublika tabiatining xilma-xilligi va o`ziga xosligi, mahalliy xalqning boy tarixi, madaniy an'analari, o`ziga xos tarixiy obidalari, kamxarajatligi, xavfsizligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Germaniyaning Bild nashriyoti tomonidan chop etilgan "Keyingi yil sayohatlari uchun eng yaxshi yo`nalishlar" maqolada Best in Travel reytingiga (Lonely Planet tomonidan ishlab chiqilgan) ko`ra 2020 yil sayohat yo`nalishida O`zbekiston "Narxlar va sifat uyg'un region" nominatsiyasiga sazovor bo`ldi. Shuningdek, Buyuk Ipak Yo`li mamlakatlari Toxoku yapon regionini, Amerikaning Men shtati, Avstraliyaning Lord-Xau vulqonli orollari kabi mashhur turistik yo`nalishlardan ko`ra jozibador deb topildi.

So`nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jahon turizmi bozorida O`zbekiston o`z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Viza tizimining isloh etilishi, yangi aviareyslar, festivallarning tashkil etilishi yurtimizga tashrif buyuruvchi turistlar sonining oshishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko`ra, 2017 yilga kelib O`zbekistonga 2 million 700 ming, 2018 yilda 5 million 300 mingdan ortiq turistlar tashrif buyurgan, 2025 yilga kelib xorijlik sayyohlar sonini 9-10 million nafarga oshirish rejalashtirilgan.

Turizm sohasi juda katta iqtisodiy salohiyat kasb etishi hamda iqtisodiyotning o`shishida tayanch sohalardan biri ekanligi oydinlashmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "...iqtisodiy o`shish - bu, birinchi navbatda, yangi korxonalarni qurish va kengaytirish, yo`l-transport, ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o`rinlarini yaratish, inflyatsiya va narxlarni jilovlash hamda odamlarni ish bilan ta'minlash deganidir..." Darhaqiqat, davlat rahbari tomonidan bildirilgan ushbu ta'rifni turizm sohasi misolida ko`rib tahlil qilsak, bir qator yangilik va rivojlanish holatini kuzatishimiz mumkin. Masalan, turizm sohasiga mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etish orqali infratuzilmani takomillashtirish, buning natijasida yangi turistik korxonalarni barpo etish, yo`l-transport tizimini takomillashtirish, turizm sohasiga oid mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali jahon turizm bozoriga kirib borish imkoniyati yaratiladi, turistik infratuzilmani to`la-to`kis shakllantirish orqali shu sohada yangi ish o`rinlarini yaratish imkoniyati shakllanadi.

Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda bir qator qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Jumladan, 2018 yilning o`zida 4 ta O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 6 ta qarori, 1 ta farmoyishi, 15 ta O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori, 2 ta farmoyishi va 1 ta davlat organlarining qo`shma qarori hamda 4 ta davlat dasturi qabul qilindi. 2016yildan boshlab yangi saylangan Prezidentning ilk qarori turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo`lsa, 2019 yilgacha 14 ta Prezident qarori va 9 ta farmoni qabul qilindi . Shuningdek, O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Xarakatlar strategiyasida" turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish" hamda "odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan⁷. Tahlillarga qaraganda, 2019 yilda yurtimizga 6,7 million nafar sayyoh, kelgan bo`lib, bu 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobarga oshgan. Mamlakatimizda sayyohlik xizmatlari eksporti ham shunchaga ortib, qiymati 2 milliard 86 million dollarga yetganligini e'tirof etish lozim. Albatta, 2016-2019 yillar mobaynida Turizm sohasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi. Belgilangan vazifalar natijali amalga oshirilishi bilan bir qatorda turizm sohasida yana qilinadigan ishlar, rejalar bisyor. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev"...bizda turizm ko`pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy ko`rikxonalar, togli hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi⁸.

Bugungi kunda sohada faoliyat ko`rsatuvchi personalning tayyorgarlik darajasi, korsatilayotgan xizmatlar sifati juda yuqori, ammo xorijiy mamlakatlardagi turizmga oid standartlar darajasiga yetish uchun sohani yanada rivojlantirish kerakligi barchaga ayon. Masalan, xozirgi kunda respublikamiz turizm sohasidagi xarajatlari YaIMga nisbatan foizda olganda 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 1% ni tashkil etgan xolos, Qozog`istonda ushbu ko`rsatkich 4,2%, Armanistonda 3,8%, Tojikistonda 2,9%, Rossiyada 2,7%. hamda Qirg`izistonda 1,8% tashkil etgan. Mamlakat ichida turizm sohasidagi xarajatlarni tahlil qiladigan bo`lsak, 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra O`zbekiston 1,4% tashkil etgan bo`lsa, Gruziya-5,0%, Tojikiston-4,0%, Ukraina-3,3%, Ozarbayjon-2,8%, Rossiya-2,6%, Qozog`iston-2,2%, Armaniston-1,9% ni tashkil etgan. Ushbu ko`rsatkich bo`yicha

⁷ Xarakatlar strategiyasi 2017-2021

⁸Ўзбекистон Республикаси Президентининг Парламентга Мурожаатномаси lex.uz

Filippin-14,6%, Meksika-9,9% hamda Germaniya davlati 9,9% bilan etakchilik qilmoqda.

Turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun yuqoridagi tahlillar asosida davlat darajasida xorijiy sayyohlar uchun sifatli xizmatlarni taklif etish jarayoniga ilg`or texnologiyalar, bilimlarni jalb etish aholi bandligini oshirish ishlariga ham yordam beradi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan turizm firma va tashkilotlari tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali tarzda foydalanib, sayyohbop maskanlarni internet reklamalari orqali namoyon etilishi mamlakatimizga turistlar oqimining oshishiga olib keladi. O`zbekistonning turizm va ekoturizm borasida katta yutuqlarga erishishida noyob tabiiy ob`ektlar, boy madaniy-tarixiy meros, o`zbek milliy madaniyatining qadimiy an'analari, turizm infratuzilmasi, mehmonxonalar va xizmat ko`rsatish tizimini rivojlantirish katta imkoniyatlar yaratadi. Milliy turistik industriya arzon va sifatli xizmatni yo`lga qo`ysa, raqobatbardoshligi darajasi ortadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, O`zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo`nalishlar bo`yicha ish-rejalar amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`ladi:

mamlakatning turistik sohasi raqobatbardoshligini ta'minlaydigan muammolarni aniqlash va uning ilmiy asoslangan yo`nalishlarini topish;

- vatanimiz tarixini sayyohlarga ko`rsatish maqsadida turizm sohasi bilan shug`ullanuvchilarga, firma, tashkilot hamda muassasalarga tarixchilarni biriktirish, ularga tariximizni keng o`rgatish, shuningdek, tarixiy obida va turistik ziyoratgohlar, muzeylarni talab darajasiga keltirish hamda ularni asrab avaylash;

- turizm sohasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug`ullanuvchilar va xomiylarni jalb etish, ularning nufuzini oshirish, keng imkoniyatlar hamda imtiyozlar yaratish;

- turistik soha uchun kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, sohaga oid ta'lim muassasasini tashkil etish, xorijiy tillarni o`kitish bo`yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va "professional gid" kasbini yo`lga qo`yish;

- mamlakat turizm salohiyatini xorijiy mamlakatlarda yanada keng tarzda targ'ibot-tashviqot qilib, ushbu mamlakatlardan keladigan sayyohlar sonini ko'paytirish, sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida rivojlangan mamlakatlardagi kabi yengil avtomobillarni ijaraga beruvchi markazlarni tashkil qilish;

Turizm sohasini erkinlashtirish, xususmulk tizimini yaratish, mehmonxonalarni ko'paytirish, shu bilan birga, bu yo'nalishda xususiy joylashtirish ob'ektlari va mehmon uylarini tashkil etish;

- sayyohlar tashrif buyuradigan joylarda damolish shoxobchalari, turli savdo rastalari hamda suvenir dukonlarni shuningdek, aeroportlarda faoliyat yuritadigan "Tax free", "Duty free" tizimidagi savdo shohobchalarini turistik shaharlarda ham ochish, bepul Wi-Fi zonalar tashkil etish;

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va sohaga investitsiyalarni jalb etish uchun hozirgi kunda mavjud barcha imkoniyatlar yetarli. Ularni to'g'ri va maqsadli yo'lda safarbar etish va jahon hamjamiyati uchun barcha yo'shalishlarda ochik eshiklar mamlakati sifatida harakat qilish yo'lini tanladi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar turizm sohasi rivojlanishiga, iqtisodiyotimiz barqarorligi, investitsion muhitning jozibadorligi va shu orqali xalq farovonligining ortishiga xizmat qiladi.

Aytish mumkinki, O'zbekistonda turizm sohasida turistik klasterning keng miqyosda tatbiq etilishi turistik-rekrattsiion resurslardan to'liq foydalanish zamirida yangi turistik firmalar ochilishiga, mavjudlarining yanada faollashuviga turtki beradi va yangi turdagi turistik mahsulotlarning yaratilishiga asos bo'ladi.

1.2. Rekreatsiion-turistik klasterlarni shakllantirish uslubiy asoslari

Turizmga iqtisodiyotning strategik tarmog'i makomini berilishi, ushbu sohani innovatsion rivojlanishga qaratilgan yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy etishini taqozo etadi. Bunday mexanizmlarning muhim vositalaridan biri sifatida klasterlar xizmat qiladi.

Klaster nazariyasining asoschisi Maykl Porter hisoblanadi⁹. Uning fikriga ko`ra klaster - bu ma'lum bir sohada ishlaydigan va o`zaro bir-birini to`ldiradigan, geografik jihatdan yonma-yon joylashgan va bir-biriga bog`lik bo`lgan kompaniyalar (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) va ular bilan bog`lik, bo`lgan tashkilotlar (o`quv muassasalari, davlat organlari, infratuzilma tashkilotlari) guruhidir. M.Porter mamlakatning raqobatbardoshligini xalqaro raqobat ta'siri ostida alohida firmalar emas, balki klaster - turli sohalardagi firmalarning birlashmalari nuqtai nazaridan ko`rib chiqish kerak va bu guruhlarining ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyati juda ham muhim, deb hisoblaydi. Shuningdek, u ushbu afzalliklarning asosiy guruhlari soni bo`yicha "raqobatbardosh olmos" (yoki "olmos") deb nomlangan mamlakatlarning raqobatbardoshligini aniqlash tizimini ishlab chiqqan. Bularga quyidagilar kiradi¹⁰:

- ❖ omillar shartlari: inson va tabiiy resurslar, ilmiy va axborot salohiyati, kapital, infratuzilma, shu jumladan xayot sifatining omillari;

- ❖ ichki talib shartlari: talab sifati, jahon bozorida talabning rivojlanish tendentsiyalariga muvofiqligi, talabning rivojlanishi;

- ❖ o`zaro bog`langan va xizmat ko`rsatish sohalari (tarmoq klasterlari): xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni qabul qilish sohalari, asbob-uskunalarni qabul qilish sohalari, xom ashyo, uskunalar, texnologiyalardan foydalanish sohalari.

- ◆> firmalar strategiyasi va tuzilishi, tarmoqlararo raqobat: maqsadlar, strategiyalar, tashkil etish usullari, kompaniyani bopqarish, tarmoqlararo raqobat.

Turizmni klaster yondashuvida rivojlanish turistik klasterlarini shakllantirishni taqozo etadi. Turistik klaster - bu turistik xizmatlarni ko`rsatuvchi geografik bir-biriga yaqin joylashgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning birlashmasidir. Turistik klasterni yaratishdan maqsad - sinergetik samara hisobidan turistik bozorida hududning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat¹¹. Bunda sinergetik samara klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning

⁹ Портер

¹⁰

¹¹

samaradorligini oshirish va innovatsiyalarni rag`batlantirish hamda yangi yo`nalishlarni rivojlantirishini rag`batlantirishda namoyon bo`ladi.

Klaster yondashuvida turizmning mezodarajadagi raqobatbardoshligini oshirish uchun klasterlashtirish siyosatini amalga oshirishini taqozo etadi. "Turistik klasterlarni shakllantirish" deganda, biz turistlarning ko`zlagan sayyohat maqsadlariga binoan ularning sayyohlik ehtiyojlarini qondira oladigan, infra va infotuzilmaga ega bo`lgan, moslanuvchan sayyohlik taklif tizimi bilan xarakterlanadigan strategik tijorat birligi sifatidagi turistik klasterlarni tashkil etish jarayonini tushunamiz.

Mintaqaviy-iqtisodiy, tabiiy-geografik, agrar va aholi joylashuvini loyihalashtirish kabi, turistik klasterlashtirish ham o`ziga xos qonuniyatlarga asoslangan jarayondir. Turistik klasterlashtirishning mohiyati sayyohlik salohiyatga ega bo`lgan turli hududlarni muayyan tamoyil va mezonlar orqali, sayyohlar oqimini o`ziga jalb qila oladigan turistik klasterlarga birlashtirish jarayoni sifatida namoyon bo`ladi. Bunda turistik klasterlashtirishdan asosiy maqsad - sayyohlik talab va taklifning uyg`un birligini marketing usulida boshqarish tizimini yaratish hamda shakllantiradigan jozibador turistik klasterlarning raqobat ustunligini oshirishdadir. O`zbekiston sharoitida turistik klasterlashtirish jarayonini quyidagi 8 ta bosqichda amalga oshirish mumkin¹²:

Birinchi bosqich. Turistik klaster mijozlarining sayyohat maqsadini aniqlash. Bu bosqichda turistik klasterlarning asosiy mijozlar guruhi va ularning sayohatdan ko`zlanadigan maqsadlari aniqlanadi. Bunda mijozlarning "tashkil qilingan" yohud turistik vositachilar yordamida tashrif amalga oshiradigan hamda "tashabbuskor sayyohlar" yohud o`zlari vositachilarsiz sayohat qiladigan guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq bo`ladi. O`zbekistonga chetdan keladigan va mamlakatimiz bo`ylab sayohat qiladigan mijozlarning tashrif maqsadlarini "dala tadqiqotlari" usulida so`rok shaklida aniqlash mumkin.

12

Ikkinchi bosqich. Turistik klasterga kiradigan ob`ektlarni tanlash. Bu jarayonda shakllanadigan turistik klasterga kiritadigan diqqatga sazovor joylar, turistik maskanlar, sayohatgohlar va turistik infrastruktura tanlab olinadi. Turistik majmuaning ob`ektlarini tanlab bo`lgach, ularning qaysi sifat darajasi (diqqatga sazovor joy, turistik maskan, turistik hudud)da qaror topganini turli ko`rsatkichlar orqali bilib olinadi.

Uchinchi bosqich. Turistik klasterlarni shakllantiruvchi asosiy omillarini aniqlash va ularni tahlil qilish. Iqtisodiy loyihalarning shakllantiruvchi ta'sirchan omillari kabi, turistik klasterlashtirishning ham o`ziga xos omillari mavjud. Ular, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Klasterning siyosiy nuqtai nazardan barqarorligi va odamlar xayotiga xavf-xatar yetkazmasligi.
2. Klaster hududida diqqatga sazovor joylar va agroturistik jozibador maskanlarning mavjudligi.
3. Agroturistik hududlarda sayyohlik oqimni vujudga keltiruvchi bozor segmentlarining mavjudligi.
4. Agroturistik hududlar joylashgan klasterlarda doimiy yashaydigan aholining va mehnat resurslarining mavjudligi.
5. Agroturistik hududlargacha etib boradigan ravon yo`llarning mavjudligi.
6. Yashash, ovkatlanish, ko`ngilxushlik ilish uchun tegishli infrastrukturaning mavjudligi.

To`rtinchi bosqich. Turistik klasterlashtirishning tamoyillarini asoslash. N.Ibragimovning fikricha, O`zbekistonda agroturistik klasterlashtirish siyosatini 4 ta tamoyillar asosida amalga oshirish mumkin:

1. Turistik jozibador joylararo (maskanlararo) muvofiqlashtirish.
2. Tematik umgash turistik jozibador joylar va maskanlarni uyg`un birlashtirish.
3. Turistik oqimni sayyohlar nigohidan yaratish va uni nazorat qilish.
4. Sayyohatgohlarni bozor usulida boshqarish.

Beshinchi bosqich. Turistik klasterlashtirishning mezonlarini ishlab chiqish. Turistik klasterlashtirish jarayonida ko`lamlilik, doimiylik, foydalilik, xilma-xillik, o`zviylilik kabi mezonlar bo`yicha turistik hududlar asosida jozibador turistik klasterlarni yaratish imkoni vujudga keladi.

Oltinchi bosqich. Raqobatbardosh turistik klasterlarni tashkil etish. Bu bosqichda turistik talabiga mos keladigan turistik salohiyatidan kelib chiqadigan klasterlar tuziladi.

Yettinchi bosqich. Turistik klaster menejmenti tizimini tashkil etish. Turistik klasterlashtirishning ushbu bosqichi destinatsion menejment konseptsiyasining turistik taklif va talabining uyg`unlashtirish g`oyasiga asoslanadi.

Sakkizinchi bosqich. Turistik klasterlarni rivojlantirish strategiyalarini tanlash. Bunday strategiyalar xujumkor, ximoya, taqlid, qaram, tahmon kabi strategiyalari bo`lishi mumkin.

Shunday qilib, yuqorida tavsiflangan sakkizta klaster shakllantiruvchi bosqichlarda strategik tijorat birligi sifatidagi turistik klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish imkoni vujudga keladi.

Turistik klasterlar butun dunyoda tarqalgan bo`lib, ko`p xollarda unga rivojlangan mamlakatlarda keng qo`llanilishi bilan birga, rivojlanayotgan va o`tish davrida bo`lgan iqtisodiyotlarda ham uchraydi. Muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatayotgan va istiqbolli turistik klasterlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: AQSH, Kaliforniya shtati Napa vodiysida vino turizmi klasteri; Avstraliyaning Kvinslend shtatida ekoturistik klaster; Janubiy Afrika Respublikasida 1999 yili turistik klasterlarni rivojlantirish milliy strategiyasi qabul qilingan; Meksikada Kankun oromgohi klasteri; Indoneziyadagi Bali oroli klasterlari.

Turizm sohasida klasterlarning shakllanishi va faoliyat ko`rsatishi umumiy qonuniyatlar asosida amalga oshishi hamda ushbu sohada namoyon bo`lish xususiyatlari aniqlangan. Klasterlarning mohiyati uni tashkil etadigan o`zaro bog`lik firmalarning qo`shilgan qiymat zanjirida o`z aksini topadi. Qo`shilgan qiymat - ma'lum korxonaning faoliyati natijasida mahsulot va xizmatlar qiymatiga

ketgan qismidir. Ishlab chiqarish faoliyatining barcha shakli qo`shilgan qiymatni yaratadi. Aniq ketma-ketlikda amal qilish natijasida ular tashkilot miqyosida qo`shilgan qiymat zanjirini shakllantiradilar. Raqobat ustunligiga erishish uchun xo`jalik yurituvchi subyekt o`zining qo`shilgan qiymat zanjiri bilan birga, xizmatlarni etkazib beruvchi hamda iste'molchilar bilan bog`lovchi tashqi zanjirlarni xam optimallashtirishi kerak. Tez sur'atlarda rivojlanayotgan klaster o`zida turli qo`shilgan qiymat zanjirlarini qamrab olib, ularning yig`indisini M.Porter "qo`shilgan qiymatlar tizimi" (value system) deb ataydi¹³.

Turistik klasterlarda qo`shilgan qiymatlar tizimi to`rt turdagi qo`shilgan qiymat zanjirlarini qamrab oladi: xizmatlarni etkazib beruvchilar (transport kompaniyalari), joylashtirish muassasalari va boshqa qo`shimcha xizmatlar, turistik mahsulotlarni sotish kanallari (initsiativ va reseptiv turoperatorlar, turagentlar, elektron bronlash tizimlari hamda turistik portallar), shuningdek iste'molchi(turist)lar.

Turistik klasterning raqobatbardoshligi va jozibadorligi qo`shilgan qiymat zanjirining har bir bo`g`inida amalga oshayotgan jarayonlar algoritmi va dinamikasini uzluksiz tadqiq qilishni taqazo etib, klasterni tashkil etuvchi subyektlarga barqaror o`shishning eng optimal yo`llarini ishlab chiqishga ko`maklashadi.

Klasterning yana bir xususiyati hamkorlik va raqobatning uyg`unlashuvidir. Turdosh va bir xil mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tashkilotlar qo`shilgan qiymat zanjirining ma'lum bo`g`inini tashkil qilib to`g`ridan-to`g`ri raqobat qilishlariga qaramasdan, strategik birlashmalarni hamkorlikda tashkil qiladilar.

Klasterlar ma'lum iqtisodiy muhitda faoliyat ko`rsatib, ko`p xollarda ularning raqobatbardoshligi aynan shu muhitga bog`lik bo`ladi. Raqobat muhiti klasterlarga turlicha ta'sir qilib, ba'zi hollarda ularning rivojlanishiga to`squinlik qilsa, boshqasida, aksincha, o`shishiga sabab bo`ladi.

¹³ Porter M. The competitive advantage of nations - New York: The Free Press, 1990. P.270p.

Klasterlar davlat va xususiy sektor hamkorligi tamoyili asosida shakllanadi va faoliyat ko`rsatadi. Klasterlarning shakllanishi va amal qilishining boshlang`ich bosqichlarida davlat muhim o`rin egallab, u turistik biznes namoyandalari bilan yaqin strategik hamkorlik olib borishi maqsadga muvofiq. Amaliyotda o`z samaradorligini ko`rsatgan davlat va xususiy mulkning turli o`zaro hamkorlik shakllari, modellari va mexanizmlari mavjud. Joylarda klaster tashabbuslarini rivojlantirishni davlat klasterini tashkil qiluvchilar o`rtasida muloqot platformalarini joriy qilish, kadrlarni qayta tayyorlash va qo`shimcha ta'lim dasturlarini amalga oshirish evaziga mahalliy ish kuchlarining malakasini oshirish, xorijiy sayyohlarni jalb qilish maqsadida hudud brendini yaratish orqali qo`llab-quvvatlaydi.

Mavzuga oid ilmiy maqolalarni o`rganish natijasida o`zaro o`xshash bo`lmagan turli ob`ektlarni klaster deb atalishi ma'lum bo`ldi. Ko`p mamlakatlarda klaster tajribasini o`rganish natijasida I.V. Pilipenko uning tarmoq va hududiy shakllarini ajratadi¹⁴:

- tarmoq. klasterlar - xalqaro mehnat taqsimotida muvaffaqiyatli ixtisoslashgan qishloq; xo`jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish tarmoqlari subyektlarining o`zaro bog`lik, guruhlari (ishlab chiqarish va milliy klasterlar);

- hududiy klasterlar - ma'lum hududda geografik jihatdan zich joylashgan bir-biriga o`xshash yoki to`ldiruvchi maxsulotlarni ishlab chiqarish hamda klaster a'zolari o`rtasida ma'lumot almashuvining yo`lga qo`yilganligi evaziga xalqaro darajada raqobatbardoshligini barqaror saqlab turgan o`zaro bog`langan korxonalar guruh (hududiy, transchegaraviy va mahalliy klasterlar).

Xulosa qilish mumkinki, turistik klasterlar iborasi turistik hududdan keskin farq qilib, institutsional tuzilmaga ega boshqariladigan makon sifatida namoyon bo`ladi hamda o`ziga o`xshash boshqa klasterlar bilan raqobatlashadi. Bizning fikrimizcha, ma'lum turistik potentsialga ega makonlarni, turizm iqtisodiyoti tadqiqotchilari tomonidan xalqaro e'tirof etilgan ma'nolarida, ya'ni unga

¹⁴ Пилипенко И.В. (2005а) Конкурентоспособность и формы организации производства в регионах России. // «Взаимодействие городских и сельских местностей в региональном развитии». Сборник материалов XXII ежегодной сессии экономико-географической секции МАРС, Саратов, 4-6 июня 2005 г. - М.: ИГ РАН. 2005. С. 42-51.

geoiqtisodiy yondashganda turistik hudud, marketing tomonidan qaralganda destinatsiya va menejment tomonidan yondashilganda turistik klaster kabi iboralarni qo'llash maqsadga muvofiq.

1.3. Turistik-rekreatsiya ob'ektlaridan foydalanishni xorij tajribasi

Turizm jahon iqtisodiyotining dinamik rivojlanib borayotgan samaradorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan asosiy tarmog'i hisoblanadi. Ayniqsa mamlakat valuta tushumlari va tashqi aloqalarda eksportning etakchi ko'rinishlaridan biri sifatida uning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Jahon miqyosida integratsiya jarayonlari va mamlakatlar iqtisodiyotining yagona iqtisodiy makonda yaxlit tizim sifatida shakllanib borayotganligi sababli globallashuv jarayonlari mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va bozor munosabatlari rivojlanishi natijasida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin tutadi. So'ngi yillarda xalqaro turizmning rivojlanish ko'rsatkichlari bu sohaning turli mamlakatlar iqtisodiyotining etakchi tarmog'iga aylanib borayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiy siyosatlarini ishlab chiqishda xalqaro turizmga ustivor soha sifatida alohida ahamiyat qaratishmoqda.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham bu soha rivoji bo'yicha takliflar bildirgan edi¹⁵. Ushbu takliflarni amalda tatbiq etish maqsadida Prezidentning 2019 yil 5 yanvardagi farmoniga muvofiq 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, 2019 yil 5 yanvar kuni imzolangan Prezidentning №4095-sonli qarori bilan mehmonxonalar

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi

tashkil etish bo`yicha istiqbolli investitsiya loyihalari ro`yxati qabul qilindi. 2025 yilda mamlakatga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 millionga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga etkazish rejalashtirilgan.

Turizmning milliy iqtisodiyotdagi o`rni va roli turistik biznesning rivojlanishidagi beqiyos ustunliklari bilan belgilanishini ko`rsatadi. Jahon iqtisodiyotining muhim komponenti bo`lgan xalqaro turistik biznes tashqi iqtisodiy faoliyatning o`ziga xos sohasidir. Uning butun dunyoda gurkirab rivojlanishi bugungi kunda boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, iqtisodiy va ijtimoiy sohasiga qiziqish bilan bog`lik. Turistik majmua doirasida shaxs tomonidan u qaerda yashashi va kelib chiqishidan qat'iy nazar yagonalik -insoniyatga tegishli ekanligini xis qilishi jamlanadi. Xalqaro turizm biznesining rivojlanishi jismoniy, intellektual rivojlanish va xordiq chiqarishga sarflanadigan bo`sh vaqtning ko`payishiga bog`lik. Bu jahon ishlab chiqarishining rivojlanishi, mehnat taqsimotining chuqurlashishi, transport vositalarining mukammallashtirilishi bilan bog`lik. Ko`plab mamlakatlar uchun turizm valutaning muhim manbaiga aylangan. U savdo, sanoat va xizmatning ayrim sohalari rivojlanishi, aholi bandligini ta'minlashga yordam beradi.

Uchinchi mingyillikda sayyohlik jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmog`iga aylandi. Tovar va xizmatlar eksporta bo`yicha u kimyo, elektronika, oziq-ovqat va xatto avtomobil sanoatini ortda qoldirmoqda. Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lum qilishicha, dunyo yalpi ichki mahsuloti xajmining undan bir qismi, xalqaro investitsiyalarning 11 foizdan ortig`i turizm xodisasiga to`g`ri keladi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmdan tushayotgan yillik daromad 1 trillion AQSH dollaridan oshadi. O`tgan yilgi natijalarga asoslanadigan bo`lsak, Amerika Qo`shma Shtatlari (128,6 mlrd.), Ispaniya (55,9 mlrd.), Fransiya (53,7 mlrd.), Xitoy (50 mlrd.), Italiya (41,2 mlrd.) sayyohlikdan eng ko`p daromad olgan mamlakatlardir. Dunyo miqyosida ish bilan band aholining 8 foizi ushbu sohada mehnat qilayapti.

Turizm sohasida ulkan salohiyatga ega O'zbekiston o'zining qadimiy obidalari, muqaddas ziyoratgohlari, xushmanzara tabiati va fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra yurtimiz sayyohlik ko'lami va tarixiy joylar ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n mamlakat qatorida turadi. Mamlakatimizda to'rt mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari YUNESKOning butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, xalqimizning bag'rikengligi va mehmondo'stligi mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar oqimini yanada ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda jahon standartlariga mos turizm sohasini shakllantirish, sohada xalqaro xamkorlikni mustahkamlash, milliy iqtisodiyotimizda turizmning rolini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston 1983 yili Butunjahon turistik tashkilotiga a'zo bo'lgan edi. Shu vaqtga qadar sohani takomillashtirish va bu yo'nalishda zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan bir qancha qonuniy hujjatlar qabul qilindi. Ularni amalga oshirish natijasida turizmning yangi yo'nalishlari yuzaga keldi. Zamonaviy mehmonxonalar qad rostladi, qadimgi tarixiy obidalar va qadamjolar qayta ta'mirlandi, yangi yo'llar barpo etildi. Dunyoning 24 mamlakati qatori yurtimiz Butunjahon turistik tashkilotining «Buyuk ipak yo'li» dasturida ishtirok etmoqda. 1995 yildan boshlab har yili «Ipak yo'li bo'ylab turizm» deb nomlangan Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi tashkil etib kelinayapti. Turizm sohasida raqobat muhiti jadal rivojlanmoqda.

O'zbekistonning salohiyati Istanbul (Turkiya), Madrid (Ispaniya), Riga (Latviya), Berlin (GFR), Moskva (Rossiya), Parij (Frantsiya), Rimini (Italiya), Tokio (Yaponiya) va London (Buyuk Britaniya) xalqaro sayyohlik yarmarkalarida muvaffaqiyatli namoyish qilinmoqda. O'zbekiston bilan Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) o'rtasidagi aloqalar izchil taraqqiy etmoqda. Samarqandda 2014 yilning 1-3 oktabr kunlari Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashining 99-sessiyasi bo'lib o'tdi.

O`zbekistonda sayyohlikning ekoturizm, ma'rifiy, madaniy va jismoniy sayohat, ekstremal, arxeologik, rafting, xeliski, sport, folklor-etnografik, tibbiy va rekreatsion turizm, agroturizm, geoturizm kabi turlari ham jadal rivojlanayotir. Sayyohlar orasida alpinistlar, chang`i sportiga qiziquvchilar ko`paymoqda. Turizm yo`nalishlari diversifikatsiya qilinib, yangi yo`nalish va dasturlar ishlab chiqilayapti.

So`ngi o`n yillik ichida milliy va xalqaro sayyohlik bozorlarida raqobat kurashining kuchayishi turizm sohasi rivojlanishining o`ziga xos xususiyatiga aylandi. Xozirda turizm sohasida chet ellik sayyohlarni jalb qilish bo`yicha zamonaviy texnologiyalar va yechimlar faol joriy etilib, sayyohlik hududlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar tobora ko`proq qo`llanmoqda. Bu borada, O`zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi eng iqtisodiy barqaror va xavfsiz hududlar sirasiga kirib, salohiyatli investorlar uchun katta investitsiyaviy jozibadorlik kasb etadi. Respublikaning salmoqli tabiiy, madaniy-tarixiy, moddiy-texnik, kadrlarga oid, innovatsion va infratuzilmaviy salohiyati bir qator istiqbolli sayyohlik yo`nalishlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, O`zbekistondagi sayyohlik sohasiga sport turizmi, tog`-chang`i turizmi, mamlakatning arxeologik va diniy tarixiga oid ma'rifiy sayohatlar kabi faol hordiq chiqarish turlarini kiritish mumkin. Bugun turizm sohasi O`zbekistonda jami xizmatlar sohasi rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchiga aylanishi, mamlakat iqtisodiyotiga valuta tushumlarining salmoqli darajada oshishiga xizmat qilishi, shuningdek, respublika yoshlari uchun minglab ish o`rinlarini yaratib beradigan yangi korxonalar tashkil etilishini ta'minlashi mumkin.

Xalqaro turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

1. Mamlakatimizda turizm statistikasini yuritish samaradorligini oshirish;
2. Turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e'tibor qaratish;
3. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish;

4. Sohaga xalqaro standartlarni joriy etgan holda O`zbekiston milliy standartlarini ishlab chiqish;

5. Xizmat ko`rsatish sifatini oshirish;

6. Yurtimizga xorijiy sayyohlarni jalb etish imkoniyati va mamlakatimizning turistik salohiyatidan oqilona foydalanish;

7. Sohaga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asosni takomillashtirish;

8. Turizmni rivojlantirishning milliy, tarmoq, va mintaqaviy dasturlari bajarilishini so`zsiz ta'minlash;

9. Sport turizmi, ekoturizm, agroturizm, soglomlashtirish turizmining zamonaviy turlarini rivojlantirib borish;

10. «Buyuk ipak yo`li» yo`nalishini zamonaviy avtomobillar bilan ta'minlash, sohaga chet el sarmoyasini olib kirish va investitsion muhitni rivojlantirish, qo`shimcha dam olish joylarini tashkil qilish hamda turistlarga xizmat ko`rsatishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

11. Turistik erkin iqtisodiy hudud yaratishni ko`paytirish;

12. Turfirmalarni, mehmonxonalarini va umumiy ovqatlanish korxonalarini birlashtirgan holda zanjirlar tuzish;

13. Turpaketlarning xilma-xilligini yaratish, narxni arzonlashtirish;

14. Mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilash hamda ular malakasini oshirib borish tizimini takomillashtirish: auditoriyalarni zamonaviy texnologiyalar (kompyuter, televizor, lingafon xonalar va x.k) bilan to`la ta'minlash, ko`proq turizmga oid konferentsiyalarning tashkil etilishi, talabalarni o`qishga va izlanishga yanada qiziqtirish maqsadida yutuqli tanlovlar o`tkazish, shahar kutubxonalarini asosan turizmga oid kitoblar bilan to`yintirish, ishlab chiqarish amaliyotini kuchaytirish, xorijiy mutaxassislarni onlayn tarzda ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarin tashkil etish, talabalarni almashinuvini yo`lga qo`yish.

Rivojlangan mamlakatlarning yangi postindustrial rivojlanish bosqichiga o`tishi iqtisodiyotning globallasuvi va xizmat ko`rsatish tarmoqlarida raqobat kurashining keskinlashishi tavsiflanadi. Buni turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy ko`rsatkichlari orqali ham kuzatish mumkin. 2018 yilda butun dunyo

bo`yicha turistlar soni 1,4 milliarddan oshdi. Jumladan, 2018 yilda O`zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 5,35 mln. kishini tashkil etgan¹⁶.

Turli yo`nalishlarga ixtisoslashgan ko`p sonli firmalar va xaridorlar mavjudligi, intellektual salohiyatga asoslangan yangi xizmatlarning vujudga kelishi turizmning murakkab raqobat modeliga ega ekanligini tasdiqlaydi. Turizm firmalari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar tarmoqda raqobat muhitini yaratish va amal qilishga imkon beradi. Aholi bandligining ortishi, ayrim hududlardagi tabiiy-iqlimiy sharoitlarni hisobga olgan holda korxonalarining yirik turistik majmualarga markazlashuv tendensiyasi va kichik biznes subyektlarining yirikroq tashkiliy tuzilmalarga bog`lanishi shubhasiz istiqbollidir. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi «O`zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi PF-5611-sonli Farmoni hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turizm tarmog`ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida»gi GGK-4095-sonli Qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda, ayniqsa turistik markazlarda turizm sohasining jadal rivojlanishiga yanada ulkan imkoniyatlar ochib beradi.

Ushbu me'yoriy hujjatlarga muvofiq, 2019-2025 yillarda O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilingan bo`lib, u ko`ra qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo`yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo`yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o`rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, 2019-2020 yillarda-turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ`ib qilish, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzok xorijdan 2 million turistni jalb qilish belgilab qo`yilgan. Uzoq istiqbolda O`zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib

¹⁶<https://uznews.uz/ru/article/13575>

qolmasdan, mintaqa va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin¹⁷. Bu o'z navbatida turizm sohasida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

Turizmning turli yo'nalishlari bilan bir qatorda O'zbekiston ziyorat turizmini rivojlantirishda qulay imkoniyatlarga ega. Bu yurtida islom dunyosining mashhur allomalari yashagan va ijod qilgan. Shu bilan birga O'zbekistonda boshqa din konfessiyalari vakillari uchun ham qadrlil tarixiy yodgorliklar mavjud. Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun din bilan bog'lik tarixiy yodgorliklarning mavjudligi yetarli emas. Turistlarni jalb etish uchun yaxshi reklama, tashviqot ishlarini olib borish, qulay viza rejimini o'rnatish, aeroport va mehmonxonalarda ibodat qilish uchun shinam sharoitlar yaratish kerak. Shu maqsadda hukumat tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Qisqa muddatlarda viza rejimi takomillashtirildi, halol turizm talablariga e'tibor kuchayishi natijasida 2018 yilda O'zbekiston halol turizm bo'yicha "Crescent Rating" tashkilotining reytingida jahonda 26 o'rinni egalladi².

Prezidentimizning 2017 yil 27 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Samarqand viloyatining Payarik tumanidagi buyuk muhaddis nomi bilan ataluvchi yodgorlik majmuasi yonida markaz bunyod etilmoqda. Bu markaz kelgusida Imom Buxoriy majmuasi bilan yaxlit kompleks sifatida yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar merosini o'rganish va tadqiq etishga xizmat qiladigan ma'rifat maskaniga aylanishi shubhasiz. Bu esa, o'z navbatida, mazkur hududni yanada obod etish, ziyorat turizmi imkoniyatlari kengayib borayotganini hisobga olgan holda, majmuani xalqaro talablar darajasida rekonstruktsiya qilish hamda ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

¹⁷ <http://lex.uz/docs/4143188>

Узбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 июлдаги ПҚ-3836 сон "Узбекистон Республикасига хорижий фуқароларнинг қириш тартибини оптимallashtirishga do'ir kuшим chora-tadbirlar turida" ti Qarori - Xalq suzi gazetasi, 6 июль, 2018 йил
<https://www.crescentrating.com/download/thankyou.html?file=X7UiOM8YGMIIIReport-2018-web-version%281%29.pdf>

Turistik xizmatlarning rivojlanishi mijozlar bilan chuqur munosabat o`rnatishni ta'minlaydi. Korxonalarining kuchli raqobat muhitida asosiy mahsulot hisobiga o`shish imkoniyati pasaygan taqdirda, ular ushbu mahsulotga qo`shimcha ravishda shunday xizmatlarni joriy etadilarki, buning evaziga ular mijozlar bilan doimiy munosabatlarni o`rnatadilar. Mohiyatan bu nazariy asoslangan va amaliy jihatdan mujassamlashgan klasterni o`zida aks ettiradi. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi mamlakat iqtisodiyotining texnologik ortda qolganligini va qoloqligidan dalolat bermaydi. Bu eng avvalo tovar va xizmatlar ishlab chiqarishdagi o`zaro nisbatga bog`liqdir. Chunki xizmatlar ko`rsatish moddiy ishlab chiqarish jarayonining davomi hisoblanib, uning uzluksizligini ta'minlab beradi. Xizmatlarning o`ziga xos xususiyati esa ularning o`zaro farqlanishiga imkon bermaydi va bu jarayon yaxlit deb hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi makro va mikro darajadagi beqaror omillar ta'sirining kuchayib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat kompaniyalarni mavjud vaziyatga moslashishning samarali shakllarini qidirishga, raqobat ko`rashini olib borishning an'anaviy usullarini qayta ko`rib chiqishga undaydi. Yangi sharoitda kompaniyalar barqaror rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hamkorlikda faoliyat yuritishning samarali shakllarini qo`llash hisoblanadi. Bunda integratsiya jarayonlariga yondashuvlarning transformatsiyalashuvi diqqatga sazovor.

O`tgan asrning 90-yillaridan boshlab raqobat muhitining o`zgarishlarini hisobga olib klaster atamasi yangicha talqinda qo`llanila boshladi. Bu yo`nalishning yuzaga kelishiga M.Porterning hududlarni strategik rivojlantirishga qaratilgan nazariy qarashlari imkon berdi¹⁸. Hozirgi paytda M.Porter tadqiqotlaridan tortib rasmiy davlat hujjatlarigacha klaster atamasiga turlicha ta'riflar ishlab chiqilgan bo`lib, ularga ko`ra berilgan tushuntirishlarda ma'lum elementlarga (innovatsion tizim, qo`shilgan qiymat yaratish ketma-ketligi va boshqalar) urg`u berilgan bo`lsada, bu tavsiflarda umumiy jihatlar ham mavjud.

¹⁸ Porter M. Конкуренция. М.: Изд. Дом "Вильямс". 1993. С.68.

Ularga ko`ra, hududiy klaster - bu o`zaro bog`lik kompaniya va tashkilotlarning ma'lum bir hudud doirasidagi birlashmasi bo`lib, ular turli faoliyat yo`nalishlariga ega bo`lsalarda, funktsional o`zaro bog`lik va bir-birini to`ldiradi. Shunday qilib klasterni tavsiflashda quyidagi uch belgini ajratib ko`rsatish maqsadga muvofiq:

- hududiy yaqinlik;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat, resurs, texnologiya)ning umumiyligi;

- ishtirokchilarning yaqindan o`zaro aloqadorligi.

Turistik-rekreatsion klaster hisoblanadigan Ziyorat turizmi klasteri o`zaro bog`lik bo`lgan xo`jalik yurituvchi subyektlar guruhi bo`lib, aholining ziyorat bilan bog`lik ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarda ishtirok etuvchi xizmatlar sohasi korxonalaridan tashkil topadi. Xizmat ko`rsatish tarmoqlari sifatida turistlarga xizmat ko`rsatuvchi barcha tarmoqlar (turistik firmalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, transport-logistika tizimi, tarixiy obidalar va muzeylar boshqarmalari, joylashtirish xizmati ko`rsatuvchi korxonalar, chakana savdo korxonalari va boshqalar) olib qaraladi.

Turizmدا klaster masalalariga bag`ishlangan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish davomida shuni alohida qayd etish joizki, klaster jarayoni eng avvalo mintaqaviy turizm masalalariga taalluqdi ekanligi ta'kidlangan. Ziyorat turizmi klasterini asosan mamlakatimizning yirik aholi manzillari va shaharlarida shakllantirish imkoniyatlari katta.

Hozirgi paytda olib borilayotgan tadqiqotlar klasterlarning qaysi modelga mos bo`lishi va ularni qo`llab-quvvatlash bo`yicha xukumat darajasida qanday choralar ko`rish bo`yicha yagona yechimni taklif etish imkonini bermaydi. Porterning fikriga ko`ra, hozirgi paytda eng raqobatbardosh tarmoqlar klaster tamoyiliga ko`ra rivojlanadi, klasterlarning shakllanishini qo`llab-quvvatlash esa butun mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligining oshishiga olib keladi¹⁹.

¹⁹ Porter M. Международная конкуренция. Конкурентное преимущество стран. М. "Международные отношения", 1993. 896с.

2009 yilda iqtisodchi olimlar D.Forey, P.David va B.Xollar²⁰ tomonidan klasterlarni shakllantirishda "oqilona" ixtisoslashuv (smart specialization) konsepsiyasi taklif qilingan. "Oqilona" ixtisoslashuv dastlab yuqori texnologiyali tarmoqlarga xos hisoblangan. Keyinchalik bu yondashuv boshqa sektorlar rivojlanishiga turtki beruvchi xizmatlar sohasida ham yaxshi natija beradi. Mazkur konsepsiya Evropaning ko'plab davlatlarida yangi klasterlarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qilgan. "Oqilona" ixtisoslashuvning tarmoqlari yoki sohalarini tanlash fan, ta'lim, biznes, ishlab chiqarish manfaatlarini ifodalovchi ekspertlar kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat organlari mazkur konsepsiyaga ko'ra quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

- "oqilona" ixtisoslashuvni kelishish va tanlovni amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratish;

- mintaqalar tomonidan tanlangan ixtisoslik nuqtai nazaridan klasterli rivojlanish monitoringini o'tkazish;

- Tanlangan "oqilona" ixtisoslashuv natijasida yuzaga kelgan ehtiyojlarni aniqlash (masalan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash sohasida) va qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish.

Bunday yondashuv boshqaruvning turli vositalarini mos holda qo'llash, ularning samarasini oshirish imkonini beradi.

Ziyorat turizmi uchun tashkiliy-iqtisodiy tuzilmaning "klasterli tuzilma" tushunchasini kiritish maqsadga muvofiqdir. Klasterli tuzilma tushunchasi o'zaro aloqador bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahalliy va hududiy tizimi bo'lib, ular turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan va aholining turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz amaliyotida mavjud bo'lgan "tarmoqli tuzilma" esa aksincha, ma'lum yo'nalish bo'yicha ixtisoslashgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahalliy va hududiy tizimi bo'lib, ular aholining ayrim ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan.

²⁰ Smart Specialization: The Concept/D.Forey, P.David, B.Hill//Knowledge for Growth:Prospects for Science, Technology, and Innovation. Selected papers from Research Commission: Jarež Potchnik's Expat Group, November 2009.P.20-24.

Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida klaster yondashuvining nazariy asoslari o`z aksini topmoqda. Ta'kidlashimiz joizki, ziyorat turizmi sohasida mavjud va shakllanayotgan klasterlarning asosi yoki yadrosi bizning fikrimizcha turistik korxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, joylashtirish korxonalari, transport-logistika korxonalari, diniy tashkilotlar, diniy-tarixiy ob`ektlarni muhofaza qilish idoralari, maishiy xizmat ko`rsatish va chakana savdo korxonalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ishchi komissiyalar va korxonalarining o`zaro hamkorligi, turizmni boshqarishning mintaqaviy tuzilmalaridan iborat bo`lishi maqsadga muvofiq.

II-BOB. O`ZBEKISTON MINTAQALARIDA TURISTIK- REKREATSION OB`EKTLARINI RIVOJLANISH DARAJASI

2.1. Mintaqalarda turistik-rekreatsion ob`ektlar salohiyatini baholash

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish boshqa mamlakatlarga qaraganda ayrim ustunliklarga ega bo`lib, ulardan foydalanish asosida turizm sohasini qisqa vaqt ichida rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Bugungi kunga qadar turistik-rekreatsion xizmatlari va turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarishni rivojlantirish masalasi qisman o`rganilgan bo`lib, bu borada kompleks yondashuvlar mavjud emas. O`zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo`yicha Xarakatlar strategiyasida ham «turizm industriyasini jadal rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish»²¹ muhim yo`nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Turistik-rekreatsiya xizmatlari faoliyatini boshqarish tizimini rivojlantirish asosida turistik-rekreatsion xizmatlar xajmining qisqa davr ichida o`sib borishi, bir tomondan mamlakatda ichki turizm iste'moli xajmining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, rekreatsiya xizmatlarini eksport qilish xajmi ortishi hisobiga eksport xajmida turistik xizmatlar ulushining ortib borishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida»²²gi, 2017 yil 5 dekabrda PF-5273-son ««Chorvok» erkin turistik zonasini tashkil etish to`g`risida»²³gi, 2018 yil 3 fevralda PF-5326-son «O`zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo`yicha qo`shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida»²⁴gi, 2019 yil 5 yanvarda PF-5611-son «O`zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi farmonlari, 2018 yil 7 fevralda PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-

²¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasining jadal rivojlantirish bo`yicha Xarakatlar strategiyasida»ni 2017 yil 7 fevralda PF-4947-son Farmoni O`zbekiston Respublikasining qrunxujalari to`plamida, 2017 yil 6-son, 70-moddada.

²² O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli "O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida"ni Farmoni O`zbekiston Respublikasining qrunxujalari to`plamida, 2016 yil

²³ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 dekabrda "Chorvok" erkin turistik zonasini tashkil etish to`g`risida PF-5273-sonli Farmoni "Xalksuvi" gazetasida 2017 yil 6 dekabr, №245(6939)

²⁴ Qrunxujalari ma'lumotlari milliy bazasida, 06.02.2018 yil, 06/18/53260657-son, 18.04.2018 yil, 06/18/54201081-son, 12.10.2018 yil, 06/18/55522038-son.

tadbirlari to`g`risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish sohani yanada rivojlanishiga asos bo`ladi.

Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jarayonida so`ngi yillarda alohida tarmoq yoki sohalarni klasterli yondashuv asosida rivojlantirilishi tadqiqotlar sohasi bo`lgan masalani ko`rib chiqishda bugungi kun holati doirasidagi tadqiqotlarni talab qiladi. Shuni e'tiborga olgan holda, mamlakatimiz hududlarida turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish tizimidan samarali foydalanish yo`nalishlaridan biri bo`lgan turistik-rekreatsion xizmatlar klasterlarini shakllantirish asosida xizmatlar bozorini rivojlantirish istiqbolli yo`nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

M.Porter fikricha²⁵, klasterlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi barqaror rivojlanish strategiyasini qo`llashni talab qiladi, ya'ni guruhlar - turli xil manfaatdor tomonlarning birlashtirilishi, iqtisodiyotning raqobatbardosh ustunligiga erishishga yo`naltirilgan sog`lomlashtirishning yangi tashkiliy shaklidir. Klaster siyosatining maqsadi - biznes va mintaqaning rivojlanishi uchun istiqbolli imkoniyatlar yaratishdir. Shunday qilib, klasterga birlashgan har bir guruh, 5-10 yil davomida uzoq muddatli biznesni rivojlantirish strategiyasiga ta'sir qiladi.

Umumiy holda klasterlar turlarini ularning asosiy elementlaridan kelib chiqqan holda **1-jadvaldagi** ko`rinishda tasniflash mumkin.

2.1.1-jadval

<i>Klaster turi</i>	<i>Klasterning asosiy elementlari</i>
Diskret klaster	Kichik va o`rta korxonalar
Turistik klaster	Turli tarmoq korxonalari
Logistik-transport klasterlari	Sakdash, yuklarni etkazib berish, infratuzilmani rivojlantirish
Innovatsion klaster	Yangi sektorlar, yangi korxonalar va mahsulot (xizmat) lar
Jarayonli (protssli) klasterlar	Jarayon (protsess) tarmoqlari korxonalari
Gorizontal yoki vertikal klasterlar	Umumiy texnologiyalar va klaster yadrosidan foydalanish asosida sanoat

²⁵ Porter M. The competitive advantage of nations - New York: The Free Press, 1990. - P.270p.

	tarmoqlararo birlashuv
Sun'iy klasterlar	Xukumat, hududiy davlat boshqaruvi topshirigi bilan tashkil etiladi
Tabiiy (stixiyali) klasterlar	Sharoitdan kelib chiqib bir mahsulot yoki xizmatni yaratish maqsadidagi bir yoki bir necha tarmoq korxonalarining o'z imkoniyatlarini birlashtirish natijasida shakllanadi
Mintaqaviy yoki tarmoq klasterlari	Alohida tarmoq yoki hudud doirasida shakllanadi
Paydo bo'luvchi, rivojlanuvchi, eskirgan klasterlar va hakazo	Klasterning xayotiylik sikli bosqichiga bog'lik
Mahalliy, hududiy (mintaqaviy), milliy va transmilliy klasterlar	Klaster ko'lamiga bog'lik holda shakllanadi
Biznes tizimlar tomonidan boshqariluvchi, davlat hokimiyati organlari tomonidan boshqariluvchi va hakazo	Boshqaruv darajasi bo'yicha shakllanadi

Ma'lum bo'lishicha, Maykl Porter sanoatdagi klaster nazariyasini qo'llashni taklif qildi, ammo bugungi kunda ushbu nazariya mintaqaviy turizmning rivojlanib kelayotgan yangi sohalarini rivojlantirish bo'yicha strategiyalar nuqtai nazaridan faol rivojlanmoqda. Turizm klasteri yadro atrofida yaratilgan turistik firmalarning biznesini tashkil etish, ular faoliyatini boshqarish, sayyohlik mahsulotini yaratish bilan bog'lik faoliyatini yuzaga keltirib, ushbu firmalar mehmonxona va ovqatlanish, transfer, savdo, o'yin-kulgi va shu turdagi boshqa xizmatlarni sotib oladi.

Turistik- rekreatsion xizmatlar faoliyatini boshqarish jarayonida shakllangan klasterlarda, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib, rekreatsion xizmatlarni taklif etuvchi korxonalar klasterning yadrosi sifatida qaralsa, hudud adminstratsiyasi, klaster tarkibidagi yondosh va qo'shimcha xizmatlarni taklif etuvchi korxonalar hamda klaster rivojlanayotgan hudud yoki mintaqa klaster bilan aloqadagi elementlar sifatida qaraladi.

Turistik-rekreatsion xizmatlar klasterining shakllanishi, yuqorida aytib o'tilganidek, bir tomondan, asosiy xizmatlarni taklif etuvchi rekreatsiya korxonalarining rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratsa, ikkinchi tomondan, klaster bilan aloqadagi elementlar uchun xam bir qator ustunliklar yaratib beradi.

Tadqiqotimiz ob`ekta bo`lgan turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish jarayonini samarali tashkil etish va ular taklif etayotgan xizmatlarga talabni kengaytirishda xam, bizning fikrimizcha, alohida klasterlarni shakllantirish yoki qisman shakllangan klasterlarni optimal darajada to`ldirish ushbu ob`ektlarning qisqa davr ichida yashirin talabni aniq talabga aylantirib, uni qondirish uchun mavjud salohiyatini to`liq safarbar etish imkonini oshiradi. Bu esa, o`z navbatida, turistik-rekreatsion xizmat korxonalarini boshqarish, aniqrog`i, klaster yadrosi hisoblangan korxonalar daromad darajasining ortishiga olib keladi.

Yuqoridagi holatlar hamda rivojlangan mamlakatlardagi rekreatsion xizmatlar klasterlari faoliyatidagi ilg`or tajribalarni hisobga olgan holda biz tomonimizdan mamlakatda alohida tarkibiy tuzilishga ega rekreatsion xizmatlar klasterini shakllantirish taklif etiladi (1-rasm).



2.1.1-rasm. Rekreatsion xizmatlar klasteri tarkibi²⁶

Rekreatsiya ob`ektlari (klaster yadrosi):

Taklif etilayotgan klaster turistik-rekreatsiya xizmatlari bilan bog`lik bo`lganligi uchun uning yadrosida rekreatsiya ob`ektlari turadi.

²⁶ Руденко В.Н. Кластеры в туризме: особенности классификации, процесс формирования и методология // Общество. Среда. Развитие. - 2016, №4. - С. 13.

Taklif etilayotgan klasterning asosiy xizmatlarni taklif etuvchi tarkibi quyidagi tuzilmalardan iborat:

- klaster adminstratsiyabiy (klaster faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tuzilma); ixtisoslashgan sanatoriylar; sanatoriy-profilaktoriyalar; pansionatlar; turistik uylar; reabilitatsiya (ijtimoiy rekreatsiya) markazlari; tibbiy-diagnostika markazlari; tematik bog`lar; turfirmalar.

Joylashtirish ob`ektlari:

- mehmonxonalar; motellar; kempinglar; xostellar; turarjoylar (mehmon uylari).

Ovqatlanish va gastronomik xizmatlar:

- restoranlar; kafe va barlar; kafeteriyalar; oshxonalar.

Savdo va maishiy xizmat korxonalar:

- savdo markazlari (oziq-ovqat, nooziq-ovqat, suvenirlar va boshq); savdo yarmarkalari; dorixonalar va fitobarlar; maishiy xizmat markazlari; aloqa va axborot xizmatlari.

Madaniy xizmatlar ko`rsatish:

- kinoteatrlar; konsert zallari; amfiteatrlar; diskotekalar, karaokelar; muzeylar; kutubxonalar; internet kafelar; lanshaftlar; attraktsionlar.

Sport-sog`lomlashtirish xizmatlari:

- cho`milish xavzalari; saunalar; sport inshootlari (stadion, tennis korti, sport zallari va boshqalar); maslahat xizmatlari.

Texnik xizmatlar ko`rsatish:

- transport vositalari ijarasi; transportlarga texnik xizmat ko`rsatish; transport vositalari uchun turargohlar.

Moliyaviy xizmat ko`rsatish muassasalari:

- minibanklar; sug`urta; valuta ayirboshlash shahobchalari.

Aytish mumkinki, turistik-rekreatsion xizmatlar klasterini yuqorida taklif etilayotgan tarkibda tashkil etilishi xizmatlar bozorini hudud miqyosida to`laqonli qamrab olish imkonini beradi. Biroq, birinchi navbatda, klasterini shakllantirishda mulkiy mas'uliyatni to`g`ri taqsimlash, ya'ni klasterning tarkibiy tizimi qaysi

faoliyat kim tomonidan olib borilishini aniq yuklatilishi klaster tizimlarining mutanosib faoliyat olib borishida muhim o`rin tutadi.

2.1.2-jadval

**O`zbekiston Respublikasida viloyatlar kesimida 2019 yil davomida tashkil etilgan Sanatoriy va sog'lomlashtirish ob`ektlari to`g`risida
MA'LUMOT**

Viloyatlar	Ob`ektlar soni
Qoraqalpog`iston Respublikasi	9
Andijon viloyati	9
Buxoro viloyati	4
Jizzax viloyati	12
Navoiy viloyati	7
Namangan viloyati	16
Samarkand viloyati	19
Sirdaryo viloyati	2
Surxondaryo viloyati	11
Farg`ona viloyati	22
Qashqadaryo viloyati	4
Xorazm viloyati	2
Toshkent viloyati	24
Toshkent shahri	11
Jami:	152

2.1.3-jadval

**Xorazm viloyatida 2017-2019 yillarda turizm salohiyatini yuksaltirish
ko`rsatkichlari**

№	Ko`rsatkich nomi	2017 yil	2018 yil	2019 yil
1	Sayyohlar soni	1 160 600	1 653 665	2 646 597
	Xorijiy sayyohlar soni	60 600	123 210	420 828
	Mahalliy sayyohlar soni	1 100 000	1 530 455	2 225 769
2	Mehmonxonalar	56/1278/2325	69/1356/2646	152/2203/4603
	<i>Urganch shahri</i>	15/389/689	17/439/740	28/581/1076
	<i>Xiva shahri</i>	32/754/1508	41/795/1648	116/1506/3287
	<i>Xiva tumani</i>	3/66/152	4/54/105	
	<i>Xazorasp tumani</i>	4/50/120	4/43/99	4/91/175
	<i>Urganch tumani</i>	1/3/7	2/19/39	2/9/20
	<i>Gurlan tumani</i>	1/6/15	1/6/15	1/6/15
	<i>Xonqa tumani</i>	-	-	1/10/30
	<i>Shu jumladan, xona fondi 30 tadan ko`p yirik mehmonxonalar soni – 22 ta</i>			22/1218/2352
3	Xostellar	-	1/4/12	9/58/153
4	Mehmon uylari	1/2/12	10/34/89	64/212/581
5	Motellar	-	-	-
6	Kempinglar	-	-	-
7	Sanatoriy va sog`lomlashtirish ob`ektlari	1	2	2
8	Turoperatorlar	22	34	58
9	Gidlar-ekskursovodlar, shu jumladan:		103	114
	<i>Ingliz tili</i>			61
	<i>Rus tili</i>			45
	<i>Frantsuz tili</i>			14
	<i>Nemis tili</i>			17
	<i>Ispan tili</i>			1
	<i>Italian tili</i>			1
	<i>Turk tili</i>			5
	<i>Koreys tili</i>			5
	<i>Yapon tili</i>			2
10	Turistik sinfga mansub transport vositalari, shu jumladan:	17	28	133
	<i>avtobus</i>	6	8	31
	<i>mikroavtobus</i>	11	14	92
	<i>elektromobillar</i>	-	6	10
11	Turistlar tashrif buyurishi mumkin bo`lgan yirik restoran va kafelar	11	17	30
	<i>Urganch shahri</i>			
	<i>Xiva shahri</i>			
	<i>Urganch tumani</i>			
12	Folklor ansambllari	22	25	26
13	Hunarmandlar ustaxonalari (turistlar uchun)	36	42	2018
14	Suvenir do`konlari	48	63	105
15	Ko`ngilochar parklar	12	13	13
16	Tematik parklar	-	1	1
17	Akvaparklar	-	-	-
18	Suv attraksionlari	-	1	1
19	Chashna (degustatsiya) zallari	-	-	1
20	Madaniy meros ob`ektlari,	237	237	259

№	Ko`rsatkich nomi	2017 yil	2018 yil	2019 yil
	<i>shu jumladan:</i>			
	<i>Arxitektura yodgorliklari</i>	<i>134</i>	<i>134</i>	<i>135</i>
	<i>Arxeologik obidalar</i>	<i>17</i>	<i>17</i>	<i>37</i>
	<i>Monumental san'at yodgorliklari</i>	<i>80</i>	<i>80</i>	<i>81</i>
	<i>Diqqatga sazovor joylar</i>	<i>6</i>	<i>6</i>	<i>6</i>
21	Qayta ta'mirlangan madaniy meros ob'ektlari	6	12	26
	<i>Qayta ta'mirlash uchun sarflangan mablag' (mlrd.so`mda)</i>	<i>17,6</i>	<i>6,3</i>	<i>40,8</i>
22	Mo`zeylar	12	17	25
23	Ziyorat turizmi ob'ektlari	7	7	8
24	O`rmon xo`jaliklari	3	3	3
25	Qo`riqlanma hududlar	2	2	2
26	Eko-agroturizm ob'ektlari	3	4	15
27	Eko-parklar	-	-	-
28	Bepul Wi-Fi zonalari	-	3	17
	<i>Urganch shahri</i>			
	<i>Xiva shahri</i>			
29	Turistik axborot markazlari	-	4	12
30	O`rnatilgan turistik yo`l ko`rsatkichlar	8	15	46
31	Turistik ob'ektlarda yangi tashkil etilgan sanitariya-gigiena shoxobchalari	125	95	220
32	Yo`l bo`ylarida yangi tashkil etilgan sanitariya-gigiena shoxobchalari	35	20	55

2.2. Turistik xizmatlar bozorida rekreatsion turizmni o`rni

Turizm tarmog`ida klaster usuli bir qator davlatlarda qo`llanilib kelinmoqda. Turizm sohasida klasterni yangi yo`nalish ekanligi bu sohada ko`pgina tashkiliy, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etmoqda. Turizmning ilmiy adabiyotlarida klaster etnonimi bir qator evolyutsion o`shishni kuzatish mumkin: 1962 yildan boshlab klaster - turistik markaz; 1968 yildan boshlab -rekreatsion hudud; 1975 yildan boshlab - rekreatsion tizim; 1985 yildan - kurort; 1995 yildan - turistik destinatsiya; 2005 yildan buyon esa, turistik klaster kabi bosqichlarni bosib o`tdi. Klasterli tahlil ko`pgina fanlarda masalan, matematika, geografiya, fizika, ximiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, astronomiya, statistika, informatika kabi fanlarda muntazam qo`llanilib kelinadi. Turistik-rekreatsion klasterda turizmning tarkibiy bo`g`inlarini differentsiatsiyasi sifatida qarash o`rinlidir. Bular ikki tipli bo`ladi: birinchi tip-franchayzingli munosabatdagi turistik zanjir (bir tipdagi otellar klasteri Sheraton, Best Western, Mariott, Interkontenental; restoranlar zanjiri masalan Makdonalds, Maksim, Pitssa-xat va boshqalar; transport tizimlari zanjiri Aeroflot, Lyuftganza va boshqalar) bo`lsa, ikkinchi* tip - klaster destinatsiyaga

ya'ni, turistik paketni shakllantiruvchi hududga asoslanadi. Klasterning ikkala holatida xam firma va tashkilotlar qo'shimcha qiymat zanjiri ko'rinishida umumiy qiymatning shakllanishida ishtirok etadi. Raqobatda ustunlikka intilish davomida ishtirokchilarning qiymat jamg'arish tizimidagi barcha qo'shimcha qiymat zanjiri klaster ta'sirida optimallashtirib (Value system-M.Porter) boradi. Turistik klasterning muhim alomati kooperatsiya va raqobatning uyg'unligidir. Turistik korxonalarining klasterga birikishi ularga katta manfaat keltiradi. Raqobat munosabatlari uning tarkibiga kiruvchi firmalar va shuningdek, boshqa tashqi klasterlar firmalariga nisbatan shakllanadi. Xar bir klaster o'ziga xos iqtisodiy muhit ta'sirida bo'ladi va uning raqobatbardoshligi turli darajada shakllanadi. Quyida klasterlar raqobatbardoshligi «romb» shaklda tasvirlangan. Bugungi kunda turizm klasterini qo'llash uni destinatsiya konstantasining kontsepti sifatida yondoshuvi asosiy o'rin tutadi. Destinatsiya termini turizm lug'atida «destination-belgilangan joy» degan ma'noni anglatadi.

Klaster ob'ektlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish aloqalari Destinatsiya iborasini birinchi marta turistik markaz sifatida Tomas Kuk qo'llagan (1840y). Dunyoda birinchi destinatsiya markazi sifatida Angliyaning Lamfboro shahri tan olinadi. XX-asrda destinatsiya Butunjahon turistik tashkilotining rasmiy iborasiga aylandi. Unga ko'ra, «destinatsiya-mehmonning jismonan kamida bir kechalik tashrif qilgan makonda o'tkazgan vaqti» tushuniladi. Ya'ni, destinatsiya bir sutkalik sayohat davomida iste'mol qilinadigan xordiq, ko'ngil ochar tomoshalar, tunash kabi xizmatlardan tarkib topgan turmahsulot singari nazarda tutiladi. «Makon» o'z o'rnida bozor raqobatbardoshligini belgilab beruvchi jismoniy va ma'muriy printsiplarni UN WTC BMTning Rim konferentsiyasida e'tirof etilgan (1969 yil) Klasterning destinatsiya konstantasi elementlari quyidagi argumentlar orqali ifodalanadi: tabiiy (moddiy) kenglik; tashrif buyuruvchi; tunash; bozor; raqobatbardoshlik; ta'surot olish; obraz; manzil qulayligi; turistik resurslar; attraktsiya; turistik xizmat; turistik mahsulot.

Turistik-rekreatsion klasterning mohiyatini o'rganish uchun turizmning funktsiyalarini, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rolini o'rganish zarur. Demak,

turizm sohasining funksiyalari turizmning klassik «turizm + joylashtirish + ko`ngil ochish» bazaviy uchligi ijtimoiy-iqtisodiy soha vazifalarining qariyb xammasini o`z ichiga oladi. Klasterning statistika kontseptida "turizm" deganda aholi migratsiyasining yashash va ish joyini o`zgartirish bilan bog`lik bo`lmagan "ko`chishning" bir turi tushuniladi. Turizmning rivojlanishi va ommaviy hodisaga aylana borishi bilan sayohat qilayotgan odamlarni statistik hisobga olish maqsadida «turizm» tushunchasiga berilgan dastlabki ta'riflar paydo bo`ldi. Quyidagilar turistik markaz hisoblanishi mumkin (turistik markaz destinatsiyasi shakllari): shahar; aholi punktlari; xizmat ko`rsatish maxsus ob`ektlar; daryo, dengiz, ko`llar; ma'muriy birlik; tabiat manzaralari; milliy parklar, qo`riqxonalar; tog`li massiv, noyob landshaft. Davlatlar tomonidan turizm uchun maxsus belgilanadigan bojxona, soliq, va boshqa imtiyozli rejimlar qatoriga kiradigan va turizmga tegishli bo`lgan faoliyat turlarini aniqlab olishga asos bo`ladigan maqsadlar klasterning eng muhim kategoriyasi hisoblanadi. Turizm destinatsiyasining (klasterining) asosiy maqsad va ko`rinishlari - xordiq chiqarish, turistning zavq va yangi taassurotlar olishi hamda sog`lomlashtiruvchi va davolovchi, professional-biznes, mehmondorchilik va boshqa argumentlaridan tashkil topadi

Turizm klasterining asosida ikki subtizim yotadi: turizm subyekti va turizm ob`ekti. Turizm subyekti sifatida o`ziga xos bo`lgan turistik xizmatlardan foydalanib o`z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini izlovchi tadbir qatnashchisi, ya'ni turist tushuniladi. Taklif etiladigan xizmatlar esa turizm ob`ekti sifatida namoyon bo`ladi. Sayohat maqsadi bo`lishi mumkin bo`lgan xamma narsa turizm ob`ekti sifatida tushuniladi. Turizm ob`ekti (turizm sohasi) uch asosiy komponentdan iborat: turistik mintaqa yoki destinatsiya (manzil), turistik tashkilot va turistik korxonalar. Turistlar uchun iste'mol ob`ekti sayohatdan iborat. U mazkur davr mobaynida ehtiyojlarni qondirishi mumkin bo`lgan mahsulotlar va xizmatlarning foydaliligi (iste'mol samarasi) bilan belgilanadi. Aynan shu foydalilik sayohat qiluvchilarning o`ziga xos ehtiyojlarining qondirilish darajasidan iborat. Bular quyidagilar: odatdagidan farq qiluvchi sharoitlar da tunash; turistik farovonliklarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish, amalga

oshtiriladigan geografik muhit; foydalaniladigan mexnat vositalari (mehmonxona va tarixiy-madaniy markazlar, transport va x.,k.). Turistlarning sayohat va doimiy yashash joyidan tashqarida bo'lishlari vaqtida ularga mahsulotlar va xizmatlarni harid qilishda turli qulayliklarni ta'minlovchi barcha faoliyatlarning yig'indisi turistik xizmatlar deb ataladi. Turistik xizmat bir vaqtning o'zida kompleks va maxsus xususiyatga ega: birinchisi - sayohatdagi turistning xilma-xil ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi, bunda destinatsion markazning qo'shimcha xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan turli xil sotsial, madaniy va servis bo'g'inlari ishtirok etadilar; ikkinchisi esa – o'troq yashash paytidagi xizmat ko'rsatishdan umuman farq qiladigan tashkillashtirish va tarkibiy tuzilishni (joylashtirish, restoran xo'jaliklari ishtirok etishi) nazarda tutadi. Taklif etiladigan turistik xizmatlar, hududlar bo'ylab destinatsion klasterlarga taqsimlanadi. Ulardan ba'zilari (axborot beruvchi, vositachilik va x.,k.)ni turistlar yashash joylaridan oladilar, boshqalari (transport, axborot va boshq.)ni - sayohat paytida, qolganlari (ovqatlanish, tunash, ko'ngil ochish, davolanish va x.k.larni) belgilangan turistik joyda oladilar. Oldi-sotdi va xizmatlar taqdim etish jarayonlarining vaqt va joy bo'yicha mos kelmasligi ma'lum tashkiliy qiyinchiliklar tug'diradi. Turistik klaster infrastrukturasi ta'minlovchi moddiy-texnika bazasini yaratish va qo'llab-quvvatlash turistik xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtiradi, klaster raqobatbardoshligining oshishiga ko'mak beradi

Turistik-rekreatsion destinatsiya markazlarning klaster sifatida tashkil etishda uning infrastrukturaviy tuzilmalarini quyidagi guruhlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiqdir: - turistlarni joylashtirish (mehmonxonalar, motellar, kempinglar, pansionatlar, turistik bazalar, xususiy sektor xonadonlari, palatkalar, kemalar, poezdlar, yaxtalar va x.k.); - oziq-ovqat bilan ta'minlash (restoranlar, kafelar, oshxonalar va x.,k.); - boriladigan mamlakat bo'ylab harakatlanish, boshqa mamlakatlarning hududi bo'ylab tranzit o'tish; -reklama va mahsulotini o'tkazish (firmalarning turmarshrutlarni ishlab chiqish, transportda, joylashish vositalarida o'rin bronlashtirib qo'yish bo'yicha xizmatlari); - ekskursiyalar o'tkazish (tarjimonlar, ekskursovodlarning xizmatlari); - turistlarning ishbilarmonlik va

ilmiy qiziqishlarini qondirish (kongresslar, assambleyalar, ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, yarmarkalar, ko`rgazmalar, xam umumiy, xam maxsus maqsadlarda o`tkaziladigan savdo-sotiq tadbirlarida ishtirok etish); madaniy ehtiyojlarni qondirish (teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, ko`rgazmalar, rasmlar galereyalari, parklar, tabiiy va tarixiy qo`riqxonalar, sport musobaqalari, tarix va madaniyat yodgorliklarini borib ko`rish va x,k.); - ma'muriy-huquqiy talablar va rasmiyatchiliklarni nazorat qilish (chegara, bojxona, karantin, valuta, militsiya xizmatlari), shuningdek hujjatlarni rasmiylashtirish (vizalar, pasportlarni va xj); - turistlar uchun turli xil axborotlarni berish (yer shari u yoki bu mintaqasining turistik resurslari, u yerdagi joylashish vositalari, bojxona va chegara rasmiyatchiliklari, boriladigan mamlakat valutasining kursi, marshrutlar va x,k.); - axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, kitob nashrlari); - tabiatni, tarixiy va madaniy merosni qo`riqlash xizmatlari; - umumiy va maxsus savdo xizmatlari (esdaliklar, sovg`alar, milliy xunarmandlar mahsulotlarini va xj.larni sotish); - sug`urta va tibbiy xizmat ko`rsatish; - davlat va jamoat turistik organlari, xorijiy yuridik shaxslar va firmalarning xizmatlari. Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, turizm destinatsiyasi kontsepti doirasida klasterlash turizm va mehmonxona biznesining rivojlanishida muhim o`rin tutgani bois, turistik destinatsiya tarkibiga kiruvchi barcha tuzilmalarni proporsional tarzda rivojlantirib borish destinatsiya markazlarining raqobatbardoshligining oshishida katta ahamiyatga ega. Turistik klasterning amalda mavjud bo`lishi, uning ko`p qirraliligini isbotlovchi ko`psonli ta'riflari xam yuqoridagi fikrni tasdiqlashi mumkin. Bugungi kunda mamlakatimiz turistik biznesi faoliyatida klasterlash uning strategik tahlili va raqobatbardoshligini o`rganish uchun nazariy-metodik yondashuvlarni yaratish zaruriyati dolzarb vazifa bo`lib xizmat qiladi.

2.3. Mintaqalarda turistik-rekreatsion ob`ektlardan foydalanish darajasi

O`zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish, jumladan, tarixiy va madaniy merosga hurmat, xalqaro standartlarga to`liq, javob beradigan infratuzilmani yaratish, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash, davlatimizni eng ko`p sayyohlar tashrif buyuradigan mamlakatlardan biriga aylantirishdir. Shu

asnoda turizmning istiqbolda rivojlanishi hamda turizmning YAIM dagi ulushini sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarmoqlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz rekreatsion turizm salohiyati bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatorida turadi. Turistik xizmatlar bozorining ushbu sohasini rivojlantirishdagi birinchi vazifa - ana shu resurslardan samarali foydalanib, jadal rivojlanayotgan rekreatsion turizm sohasini rivojlantirish uchun bu yo'nalishning nazariy asoslarini yaratish talab qilinadi.

Turistik-rekreasiya korxonalari faoliyatini va ular tarkibidagi xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 dekabrda «Chorvok» erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risidagi PF-5273-sonli farmoni turistik-rekreasiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning namunasi sifatida ko'rishimiz mumkin. Farmonda belgilanishicha, ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, turistik xizmatlar hisobiga valuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo'lgan rekreatsion turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan²⁷.

Bu borada erkin turistik zona hududida zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo, ko'ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa ob'ektlarni ko'rish, shuningdek, zamonaviy muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini tashkil etish takliflari berilgan. Turistik- rekreatsion xizmatlar bozorining hozirgi kundagi holatini tarkibiy jihatdan o'rganib chiqish, ushbu tizimdagi korxonalarining aksariyati klaster shaklida tashkil topmaganligini, aniqroq aytadigan bo'lsak, asosiy xizmatlar atrofida shakllangan xizmatlar asosan talabdan kelib chiqib, uyushmagan holda alohida mustaqil va stixiyali tarzda shakllanganligini ko'rsatadi. Chunki barcha turistik-rekreasiya xizmatlari atrofida

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5-dekabrda "Chorvok" erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risidagi PF-5273-sonli Farmoni. "Xalk suzi" gazetasi 2017 yil 6 dekabr, № 245 (6939)

shakllangan infratuzilma tizimlari alohida, bir-biri bilan bog`lanmagan umumiy tashkillanmagan tarzda faoliyat olib boruvchi tuzilmalar ko`rinishida shakllangan.

Bu tuzilmalar quvvatlarining asosiy xizmat quvvatlariga bog`lanmaganligi, bir tomondan, ularning qisman noaniq bozorga ishlashiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, rekreantlarning ushbu mahsulot va xizmatlarga bo`lgan talabining qondirilishida kutilmagan o`zgarishlar yuz berishi xavfi yuqori bo`ladi. Bunday holatlar rekreatsiya ob`ektlari xizmatlarini taklif etuvchi korxonalarining "jozibadorlik" darajasi pasayishiga olib keladi. Turizm klasteri mahalliy (shahar) darajada, shuningdek, hududiy darajada tashkil etilishi mumkin. Ko`pchilik tadqiqotchilarning, jumladan, bizning fikrimizcha ham, turizmga klasterli yondashuv mintaqaning iqtisodiy o`shishiga sezilarli xissa qo`shadi.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda turizm sohasidagi iqtisodiy modellar asosan klasterlarning mutanosibligini oshirish uchun ishlab chiqilgan. Bu esa bir vaqtning o`zida to`g`ridan-to`g`ri turistik xizmatlar ko`rsatish tizimi bilan birgalikda unga yondosh, to`ldiruvchi xizmat sohaslarining ham rivojlanishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatimiz hududlarida mavjud turistik-rekreatsiya xizmatlarini samarali tashkil etish uchun klasterli yondashuv taklif etiladi.

Klaster bilan bog`liqlikdan ko`riladigan afzalliklar²⁸

Klaster bilan aloqadagi elementlar	Klaster bilan bog`liqlikdan ko`riladigan afzalliklar
Hudud administratsiyasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Soliq to`lovchilar miqdori ortadi. 2. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini diversifikatsiyalash orqali tadbirkorlik sub'ektlari bilan aloqalar mustahkamlanadi. 3. Innovatsiyalarni joriy etish xisobiga hududning rivojlanishi tezlashadi. 4. Hududlarning xarajatlarini strategik rejalashtirish motivatsiyasi kuchayadi. 5. Hudud aholisining turmush farovonligi darajasi yaxshilanadi.
Klaster tarkibidagi yondosh va qo`shimcha	<ol style="list-style-type: none"> 1. Takomillashgan infratuzilma shakllanadi. 2. Tadqiqotlar va ishlanmalar yaratish uchun yangi

²⁸ Рудченко В.Н. Кластеры в туризме: особенности классификации, процесс формирования и методы оценки // Общество. Среда. Развитие. - 2016, № 4. - С. 14.

xizmatlar ko`rsatuvchi korxonalar	<p>imkoniyatlar yuzaga keladi.</p> <p>3. Klaster tarkibidagi korxonalar bilan hamkorlikda xizmatlarni taklif etish orqali xarajatlar kamayadi.</p> <p>4. Xalqaro bozorlarga muvaffaqiyatli chiqish uchun imkoniyatlar kengayadi.</p> <p>5. Mehnat unumdorligi va innovatsiyalarni joriy etish darajasi ortadi.</p> <p>6. Bir-birini to`ldiruvchi aktivlardan foydalanuvchi korxonalar o`rtasidagi hamkorlik natijasida bilim va tajriba almashish kuchayadi.</p> <p>7. Resurslar (xom ashyo, materiallar, kapital, mehnat bozori) va sotish bozorlariga chiqishdagi to`siqlar kamayadi.</p> <p>8. Moliyaviy resurslar (investitsiyalar)ni jalb qilishning yangi imkoniyatlari yuzaga keladi.</p>
Klaster rivojlanayotgan mintaqa	<p>1. Mahalliy mahsulot va xizmatlar uchun bozor kengayadi.</p>
	<p>2. Yuqori migratsiya darajasining oldi olinadi.</p> <p>3. Mintaqaning mavjud resurslaridan ratsional foydalanishni yo`lga qo`yilishi hisobiga uning barqaror rivojlanishi uchun sharoitlar yuzaga keladi.</p> <p>4. Mintaqaviy iqtisodiyotning infratuzilmasi (sug`urta, bank sohasi, transport, xizmatlar, ishlab chiqarish va boshq.) rivojlanadi.</p> <p>5. Korxonalarining innovatsion faolligi ortishi natijasida fan va ta'lim sohalari rivojlanadi.</p> <p>6. Milliy madaniyat, urf-odatlar rivojlanishi kuchayadi.</p> <p>7. Mahalliy aholi bandligi ortishi hisobiga byudjet daromadlari ortadi.</p>

Turistik-rekreatsion xizmatlar klasterida, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib, rekreatsion xizmatlarni taklif etuvchi korxonalar klasterining yadrosi sifatida qaralsa, hudud administratsiyasi, klaster tarkibidagi yondosh va qo`shimcha xizmatlarni taklif etuvchi korxonalar hamda klaster rivojlanayotgan hudud yoki mintaqa klaster bilan aloqadagi elementlar sifatida qaraladi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda sayyohlik va rekreatsion klasterning rolini va klasterlarni identifikatsiya qilishning dastlabki bosqichini aniqlash uchun strukturaviy o`zgarishlar tahlili (SU) texnikasi qo`llaniladi. Strukturaviy o`zgarishlarni tahlil qilishda tavsifli statistik modellarning keng tarqalgan umumiy

to'plamidan umumiy jadvalli ma'lumotlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu har bir vaziyatni to'g'ri tahlil qilish uchun aniq o'zgarishni va sanoat ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi uchta komponentni baholashni talab qiladi:

1) Mintaqadagi i sohadagi i-sektor uchun milliy komponent (t) yil davomida mintaqaviy indikatorning (Q_r) o'sishi milliy ko'rsatkichlar (Q_n) o'sishiga mutanosibligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_r = a(g - D_0)$$

2) Soha tarkibining ta'siri mintaqadagi soha tarkibining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan hududiy indikator o'sishining qiymatini belgilaydi: agar ushbu sektor sezilarli darajada o'sgan bo'lsa, mintaqaviy ko'rsatkichning ham o'sishini ta'minlaydi va bu milliy iqtisodiyotning muhim bir elementiga aylanadi:

$$IMI = Q \cdot j, (2)$$

3) Hududiy o'zgarish komponenti (RS) real sektordagi umumiy darajaga mos keladigan temp bo'yicha o'sgan bo'lsa, real va taxmin qilingan o'sish o'rtasidagi farqni ifodalaydi:

4) Mintaqaviy indikatorning birgalikdagi almashinuvi joriy qilingan uch komponent summasi sifatida aniqlanadi:

$$NS_f + IM_f + RS_f (4)$$

Turizm klasteri bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, u aglomeratsiya samarasi bilan ajralib turadigan sayyohlik korxonalarining geografik jihatdan mahalliyashtirilgan birlashtiruvchisi hisoblanadi. Ikkinchidan, turizm klasterida muammo geografik kontsentratsiyani hisobga olgan holda ifodalangan. Klasterlarni aniqlash uchun mintaqaning alohida sohalarida turizmning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak. Bunday tahlil turistik va rekreatsion kompleksning raqobatdoshligini, barqarorligini va uning klaster salohiyatini tavsiflovchi shunday uchta mezon asosida tuzilganki, ularga mahalliyashtirish, ixtisoslashuv va ishlab chiqarish koeffitsientlari kiradi.

Shuni e'tiborga olgan holda, bugungi kunda ayrim xorijiy mamlakatlar, jumladan, Rossiya Federatsiyasida klasterlar faoliyatini tashkil etishda qo'llanilgan tajribalardan foydalanish taklif etiladi. Bunda klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish maqsadli davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladi va klasterlar ma'lum bir davr oralig`ida davlat-xususiy sheriklik munosabatlari doirasida subsidiyalab boriladi.



2.3.1-rasm. Rekreatsion xizmatlar klasterini shakllantirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi²⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"³⁰gi PQ-3980-sonli qaroridan kelib chiqib, rekreatsion xizmatlar klasteri davlat hamda xususiy sheriklar mablag'lari ishtirokida shakllantiriladi. Bunda, birinchidan, klaster moliyaviy faoliyatida risklar taqsimlansa, ikkinchidan, sohani rivojlantirish borasidagi dasturlarni amalga oshirilishida davlat bevosita ishtirok etadi. Uchinchidan, rekreatsion xizmatlarni yaratish uchun sarflangan mablag'larning

²⁹ Muallif tomonidan ishlab chikilgan.

³⁰ Konun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.10.2018 йил, 07/18/3980/2072-сон

qaytish darajasi nisbatan sekin bo`lgan sharoitda tadbirkorlar faoliyati davlat tomonidan to`g`ridan-to`g`ri davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladi.

III–BOB XORAZM VILOYATIDA TURISTIK-REKREATIONS KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH YO`NALISHLARI

3.1. Xorazm viloyatining turistik salohiyatini baholash

Buyuk Ipak yo`lining markazida joylashgan O`zbekiston tarixiy obidalarni ko`pligi bo`yicha dunyodagi yetakchi 10 mamlakat qatorida turadi.

Mamlakatimizda turli davrlar hamda sivilizatsiyalarga oid 7 mingdan ziyod yodgorliklar mavjud.

2015 yil sentabr oyidan boshlab jahonga mashhur "Evronyus" telekanalida Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi diqqatga sazovor joylar tasvirlangan lavhalar uzatila boshlandi. Mamlakatimiz sayyohlik salohiyatiga bag'ishlangan bu lavhalarni 155 davlatda 370 milliondan ortiq tomoshabin kuzatib bormoqda. Bunday ko`rsatuvlar 2016 yilning mart oyigacha davom etadi.

Respublika Prezidentining "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to`g`risida"gi Qarori asosida viloyatda turistik - rekreatsion klasterlarni shakllantirish ishlari boshlandi.

Qaror asosida Xivada 213,4 mlrd sumlik 204 ta istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi, 20 dan oshiq qo`shimcha sayyohlik xizmatlari yo`lga qo`yiladi.

Avvaldan mavjud mehmonxonalar qaytadan jahon andozalariga to`liq javob beradigan darajada qayta ta'mirlanadi. 14 ta yangi mehmonxona quriladi.

Yangi bog'lar, hiyobonlar, gulzorlar yaratiladi, rangli favvoralar o`rnatiladi. Madaniyat va istiroxat bog'ida namunali xordiq chiqarish imkoniyatlari yaratiladi.

Ma'lumki, 820 gektar maydonni egallagan, 2500 yillik tarixiga ega qadimiy Xiva yurtimizning jonli tarixi, xalqimizning buyuk o`tmishidan, ajdodlarimizning mislsiz iqtidori, ma'naviy qudratidan dalolat beruvchi shahardir. Buyuk Ipak yo`lida joylashgan bu nurli manzil asrlar mobaynida insoniyatning ma'naviy va moddiy madaniyati rivojiga beqiyos xissasini qo`shib kelgan. Bu yerdan jahon ilm-fanini baland cho`qqilarga ko`targan buyuk allomalar etishib chiqqan.

Xususan, shaharning mo`jizaviy "Ichan qal'a" davlat muzey-qo`riqxonasini xalqimizning buyuk salohiyati namunasi, deyish mumkin.

Xiva bilan birga, bu maskan qadimiy tarix aks sadolarini o`zida mujassam

etgani, noyob me'moriy uslublar asosida barpo qilingani bilan jahon ahlini hanuzgacha hayratga solib kelayotgan abadiyatga daxldor hazinadir. Xiva "Ichan qal'a" davlat muzey-qo`riqxonasi yilning to`rt faslida ham sayyohlar qadami uzilmaydigan ochiq osmon ostidagi shahar-muzey yodgorligi bo`lib, ko`p ming yillik shaharsozlik madaniyati, me'morchilik, xalq amaliy san'atiga oid doimiy ko`rgazma va ekspozitsiyalari orqali xalqimizning eng qadimgi davrlaridan to XX asr boshlarigacha bo`lgan tarixini daliliy ashyolar orqali namoyish etadi.

Obidalar huddi yaxlit, bir-biriga uyg'un, bir-biridan salobatli va ko`rkam. 1990 yil 12 dekabrda Xiva shahrining qadimiy Ichan qal'asi YUNESKO qarori bilan jahon ahamiyatga molik shaharlar ro`yxatiga kiritilgan. 1997 yilda YUNESKO qaroriga ko`ra, Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi dunyo miqyosida keng nishonlandi. Xiva shahri bilan birga, Ichan qal'a ham qayta ta'mirlandi. Uning eksponatlari - qal'a devori bilan o`ralgan to`rt darvozani shahar, saroylar, masjid, madrasa, minorai kalonlar va shunga o`xshash qadimiy imoratlardir. Hozirgi kunda ana shunday 53 ta qadimiy yodgorlik hamda me'moriy obida saqlanib qolgan. Ular ichida tarixdan guvohlik beruvchi alohida muzeylar ham joy olgan.

Umumiy maydoni 26 gektarni tashkil etadigan muzey qo`riqxonada 21 doimiy ko`rgazma ishlab turibdi. Ular fondida 55 mingdan ortiq eksponatlar mavjud. Qadimiy eksponatlar, asosan, qurol-aslaxalar, hujjatlar va noyob qo`lyozma asarlardan iborat, shuningdek, arxeologik topilmalar, tangalar, muhrlar, qulolchilik, miskarlik, yog'och o`ymakorligi, zargarlik ashyolari, gilamlar, cholg'u asboblari, liboslar, to`qimachilik buyumlari hamda uch mingdan ziyod tarixiy fotosuratlar to`plamlari ham ko`rgazmalardan munosib o`rin egallagan. Muzey-qo`riqxonada faoliyati davomida moddiy-madaniy merosni ilmiy tavsif qilish, xalqimiz ongida milliy g'urur tuyg'ularini yanada kuchaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Ichan qal'aga 2014-yilda qariyb 729 ming nafar sayyoh, tashrif buyurgan, shundan 50 ming nafarga yaqini chet ellik sayyohlardir. Ular safi muttasil kengayib borayotgani jahon aholining xalqimiz tarixi va betakror qadriyatlariga bo`lgan cheksiz hurmatini ko`rsatib turibdi.

Keyingi yillarda qal'a yodgorlik muhitini himoya qilish, qo`riqxonada

hududidan, tevarak-atrofidan o`rinli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muzey-qo`riqxonada atrofidagi yopiq drenaj tarmoqlarini to`liq rekonstruktsiya qilish va yangidan qurish, sizot suvlar po`lati va satxini o`rganishdek amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Fikrimizcha, shakllantirilayotgan turizm-rekreatsion klasteri talablari asosida:

- muzeyi qo`riqxonaning 3D modelini yaratish;
- Google, Yandex kabi ommaviy elektron kartalarda moddiy-madaniy meroslar to`g`risidagi axborotlarni joylashtirish;
- infokiosklar uchun madaniy meroslar to`grisidagi to`liq ma'lumotlar jamlangan dasturlar yaratish;
- hududda WI-FI zonasi tashkil qilish;
- IT texnologiyalar asosida optik tolali aloqa tarmoqlarini o`rnatish bo`yicha ishlarni amalga oshirish zarur.

Xiva haqida maxsus sayt ochib, obidalarini ko`proq targ`ib qilish, turli turlarda bukletlar, yo`l ko`rsatkichlar, albomlar tayorlash yaxshi samaralar beradi.

Ekoturizmni rivojlantirish baliq ovi, qum barxanlari bo`ylab sayr, suv transporti hizmatidan foydalanish kabi hizmatlarni yo`lga qo`yish sayyohlik sohasidan keladigan daromadlarni oshiradi.

Bu tadbirlarni amalga oshirish turizm klasterini shakllantirishda muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

O`zbekistan Respublikasi Prezidentiniig "Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini rivojlantirish Dasturi to`g`risida"gi Qarori qabul qilinishi viloyatimizda sayyohlikni har tomonlama jadal sur'atlar bilan rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etdi. Keyingi uch yil davomida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududning sayyohlik yo`nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun qo`shimcha ob`ektlar infratu`zilmasini yaxshilash, soha mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirish, xizmat ko`rsatish darajasini yanada yuksak pog'onaga ko`tarish bo`yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda qadimiy va navqiron Xivaning tarixiy obidalarini chet ellik

sayyohlar va mehmonlar katta xayrat, xavas bilan tomosha qilmoqdalar. Shuningdek, viloyat markazidagi bunyodkorliklarni, sulim xiyobonlar va ekoturizm bo'yicha manzillar ham mehmonlarda chuqur taassurot qoldirmoqda.

Ayni kunda viloyatda 255 ta madaniy meros ob'ektlari ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, bular 18 ta arxeologiya, 133 ta arxitektura, 66 ta xaykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 ta muqaddas joylardir.

Viloyatda 2012 yilga nisbatan sayyohlik tashkilotlarning soni 36 tadan 59 taga etdi. Mehmonxonalar soni 42 taga, turistik firma va turagentliklar soni 17 ga etdi. Jumladan, 16 ta mehmonxona, 7 ta sayyohlik tashkilotlari yangidan tashkil qilindi. Mehmonxonalarda o'rinlar soni bugungi kunda ikki mingtadan oshdi. Shularning 490 tasi yangidan tashkil etilgan, 18 ta mehmonxona hisobiga ortgan. Ayni paytda qurilishi davom etayotgan 16 ta mehmonxona hisobiga qo'shimcha yana 700 ta mehmonxona o'rinlari tashkil etiladi.

Viloyatimizda sayyohlarga xizmat ko'rsatishning barcha turlari jahon talablariga monand yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa Urganch xalqaro aeroportida kutib olish va kuzatish terminallari jahon standartlariga javob beradigan barcha vositalar bilan to'la jihozlandi va yo'lovchilar uchun qulayliklar yaratilgan. Bu yerda keng va yorug' zallarga so'ngi rusumdagi zarur vositalar o'rnatilgan. Ona va bola xonasi, tibbiyot punkti, "Duty free" dukoni, qaxvaxona shular jumlasidandir. Bundan tashqari sayyohlar uchun xizmat ko'rsatadigan axborot xizmati xonasi tashkil etildi.

Urganch temir yo'l vokzalida ham sayyohlarga xizmat ko'rsatish uchun keng imkoniyatlar muhayyo etilgan. Tashrif buyurayotgan sayyohlarning tarixiy yodgorliklar, obidalar bilan tanishtirish maqsadida Xorazm Ma'mun akademiyasi bilan hamkorlikda axborot ma'lumotlarini shakllantirish ishlari yakunlandi.

Sayyohlikni rivojlantirish uchun viloyatda 17,25 km. uzunlikdagi optik tolali kabel o'tkazilib, 2304 internet portlari o'rnatildi. Vohamiz o'ziga xos tabiat manzaralariga ega.

Shu sababli ham keyingi yillarda ekoturizm izchil ravishda rivojlanmoqda. Jumladan, turistlarga yangi sayyohlik yo'nalishlari taqdim qilish borasida Xiva

tumanida "Bog'i shamol", "Xiva Qorako'l" fermer xo'jaligida, "Eshon Ravot" ko'lida, Bog'ot tumanidagi "Qalajiq qal'a", Urganch tumanidagi "Ulli xovli" ob'ektlarida yangi sayyohlik infratuzilmalari tashkil etildi. Ayni kunda vohamizga tashrif buyurayotgan sayyohlar, shuningdek, mehmonlar ham bu yerlarda bo'lib, chuqur taassurot olmoqdalar.

Urganch shahridagi Shovot kanali bo'yidagi obod manzillar, go'zal xiyobonlar va ulardagi dam olish maskan-lari, milliy an'analar asosida ko'rsatilayotgan xizmat turlari ham sayyohlarga ma'qul bo'lmoqda. Shovot kanali bo'yida zarur infratuzilmaga ega kemalar to'xtashi uchun maxsus joylar barpo etildi, yangi kemalar sotib olinib, ishga tushirildi.

Sayyohlarni xordiq chiqarish industriyasini rivojlantirish borasida "Doston folklor", "Xiva folklor" etnografik xalq ansamblari va "Saykal" oilaviy folklor ansambllaridan iborat badiiy jamoalar "Ollaqulixon" madrasasida mavsum davomida xorijiy sayyohlarga xar kuni o'z kontsert dasturlarini namoyish qilmoqdalar.

Shuningdek, xar yili iyun oyida "Xorazm madaniyati" festivali, avgust oyida "Gurvak - Xorazm qovunchiligi ramzi" festivallarini o'tkazish an'ana tusiga kirdi. 2015 yil Xivada tashkil etilgan ushbu festivalda sayyohlar ham ishtirok qilib, o'zlarining dil izhorlarini samimiylik bilan bildirdilar. Ayni paytda sayyohlarga xizmat ko'rsatish borasida izlanishlar, tajriba almashishlar davom etmoqda. Masalan, viloyatdagi turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar qator chet davlatlarga borib, bu yo'nalishdagi malakalarini oshirib qaytdilar. Viloyatning o'zida kelgusida turizm sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarni tayyorlash maqsadida Urganch turizm va mehmonxona xo'jaligi kasb-xunar kollejida mashg'ulotlar bevosita amaliyot bilan bog'liq holda o'tkazilmoqda. Faqat ushbu kasb-xunar kollejining o'zida 3 ta yo'nalishda yiliga 120 nafar mutaxassis tayyorlanmoqda:

Viloyatimizda Yurtboshimizning Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risidagi Qarori ijrosini ta'minlash kundalik e'tiborda. Bu esa o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni taraqqiy toptirish va xalq farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor bermoqda. Shu maqsadda 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori e'lon qilingandi.

Mazkur hujjatlarda an'anaviy madaniy-tarixiy turizm barobarida, uning ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, davolash-sog'lomlashtirish, sport, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turlarini keng ommalashtirish, sohani kompleks rivojlantirishga doir milliy va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, bu boradagi xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti, xorijiy mamlakatlarning shu faoliyat bilan shug'ullanadigan tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, respublikamizning barcha hududida turizm industriyasi ob'ektlarini joylashtirish, tizim uchun yetuk kadrlarni tayyorlashni tubdan takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muayyan chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, sohada boshqaruvni takomillashtirish maqsadida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi negizida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil qilindi.

Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagi "Turizm sohasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Xorazm, Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlari hokimlarining turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimlari joriy qilindi.

3.1.1-jadval

Xorazm viloyatidagi joylashtirish vositalari to'g'risida hududlar kesimida ma'lumot (2020 yil 1 yanvar holatiga)

T/R	Hudud nomi	Umumiy			Mehmonxonalar			Oilaviy mehmon uylari			Mehmon uylari			Xostel			Butik otel		
		Soni	Xonalar soni	O'rinlar soni	Soni	Xonalar soni	O'rinlar soni	Soni	Xonalar soni	O'rinlar soni	Soni	Xonalar soni	O'rinlar soni	Soni	Xonalar soni	O'rinlar soni	Soni	Xonalar soni	O'rinlar soni
Jami		152	2203	4603	73	1907	3809	64	211	581	5	18	41	9	58	153	1	8	19
1	Urganch shahri	28	581	1076	18	553	981	9	23	80				1	5	15			
2	Xiva shahri	116	1506	3287	49	1255	2626	56	189	501	4	13	31	7	41	110	1	8	19
	<i>Shundan "Ichan Qal'a"da joylashgan</i>	65	471	1080	15	301	620	43	139	382	3	11	25	2	12	30	1	8	19
3	Xazorasp tumani	4	91	175	3	79	147							1	12	28			
4	Urganch tumani	2	9	20	1	4	10				1	5	10						
5	Gurlan tumani	1	6	15	1	6	15												
6	Xonqa tumani	1	10	30	1	10	30												

3.1.2-jadval

Xorazm viloyatidagi davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros ob`ektlari to`g`risida MA'LUMOT(2020 yil 1 yanvar holatiga)

T/R	Shaharlar va tumanlar nomi	Jami	Arxeologiya madaniy meros ob`ektlari	Arxitektura madaniy meros ob`ektlari	Monumental san'at yodgorliklari	Diqqatga sazovor joylar
		259	37	135	81	6
	Xiva shahri	110	4	95	10	1
	Urganch shahri	20	-	10	5	5
	Xiva tumani	11	1	6	4	-
	Urganch tumani	18	1	3	14	-
	Gurlan tumani	7	-	1	6	-
	Xazorasp tumani	34	18	10	6	-
	Shovot tumani	9	3	2	4	-
	Bog`ot tumani	16	3	2	11	-
	Xonqa tumani	10	-	5	5	-
	Yangibozor tumani	4	-	-	4	-
	Yangiariq tumani	7	3	-	4	-
	Qo`shko`pir tumani	13	4	1	8	-

3.1.3-jadval

Xorazm viloyatiga 2017-2019 yillar davomida tashrif buyurgan sayyohlar to`g`risida MA'LUMOT

Nafar (Tezkor ma'lumot)

T/R	Viloyatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar	2017 yil (01.01.2017- 01.01.2020)	2018 yil (01.01.2018- 01.01.2020)	O`tgan yil mos davriga nisbatan foiz ko`rsatkichi	2019 yil (01.01.2019- 01.01.2020)	O`tgan yil mos davriga nisbatan foiz ko`rsatkichi
				(%)		(%)
Jami:		1 160 700	1 653 665	142%	2 646 597	160%
1	Chet el fuqarolari	60 700	123 210	203%	420 828	342%
	<i>Shu jumladan, mahalliy turoperatorlar tomonidan olib kelingan xorijiy sayyohlar soni</i>				40 005	
2	O`zbekiston Respublikasi fuqarolari	1 100 000	1 530 455	139%	2 225 769	145%

3.2. Xiva turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish manbai

Buyuk Ipak yo`lining markazida joylashgan O`zbekiston tarixiy obidalarni ko`pligi bo`yicha dunyodagi yetakchi 10 mamlakat qatorida turadi. Mamlakatimizda turli davrlar hamda sivilizatsiyalarga oid 7 mingdan ziyod yodgorliklar mavjud.

2015 yil sentabr oyidan boshlab jahonga mashxur "Evronyus" telekanalida Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi diqqatga sazovor joylar tasvirlangan lavhalar o`zati boshlandi. Mamlakatimiz sayyohlik salohiyatiga bag`ishlangan bu lavhalarni 155 davlatda 370 milliondan ortiq tomoshabin ko`zatib bormoqda.

Bunday ko'rsatuvlar 2016 yilning mart oyigacha davom etadi.

Respublika Prezidentining "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" gi Qarori asosida viloyatda turistik - rekreatsion klasterlarni shakllantirish ishlari boshlandi.

Qaror asosida Xivada 213,4 mlrd sumlik 204 ta istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi, 20 dan oshiq qo'shimcha sayyohlik xizmatlari yo'lga qo'yiladi.

Avvaldan mavjud mehmonxonalar qaytadan jahon andozalariga to'liq javob beradigan darajada qayta ta'mirlanadi. 14 ta yangi mehmonxona quriladi.

Yangi bog'lar, hiyobonlar, gulzorlar yaratiladi, rangli favvoralar o'rnatiladi. Madaniyat va istiroxat bog'ida namunali xordiq chiqarish imkoniyatlari yaratiladi.

Ma'lumki, 820 gektar maydonni egallagan, 2500 yillik tarixiga ega qadimiy Xiva yurtimizning jonli tarixi, xalqimizning buyuk o'tmishidan, ajdodlarimizning mislsiz iqtidori, ma'naviy qudratidan dalolat beruvchi shahardir. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bu nurlu manzil asrlar mobaynida insoniyatning ma'naviy va moddiy madaniyati rivojiga beqiyos xissasini qo'shib kelgan. Bu erdan jahon ilmi-fanini baland cho'qqilarga ko'targan buyuk allomalar etishib chiqqan.

Xususan, shaharning mo'ljizaviy "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasini xalqimizning buyuk salohiyati namunasi, deyish mumkin. Xiva bilan birga, bu maskan qadimiy tarix aks sadolarini o'zida mujassam etgani, noyob me'moriy uslublar asosida barpo qilingani bilan jahon ahlini hano'zgacha hayratga solib kelayotgan abadiyatga daxldor hazinadir. Xiva "Ichan qal'a" davlat mo'zey-qo'riqxonasi yilning to'rt faslida ham sayyohlar qadami o'zilmaydigan ochiq osmon ostidagi shahar-mo'zey yodgorligi bo'lib, ko'p ming yillik shaharsozlik madaniyati, me'morchilik, xalq amaliy san'atiga oid doimiy ko'rgazma va ekspozitsiyalari orqali xalqimizning eng qadimgi davrlaridan to' XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixini daliliy ashyolar orqali namoyish etadi.

Obidalar huddi yaxlit, bir-biriga uyg'un, bir-biridan salobatli va ko'rkam. 1990 yil 12 dekabrda Xiva shahrining qadimiy Ichan qal'asi YUNESKO qarori bilan jahon ahamiyatga molik shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 1997 yilda YUNESKO qaroriga ko'ra, Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi dunyo miqyosida

keng nishonlandi. Xiva shahri bilan birga, Ichan qal'a ham qayta ta'mirlandi. Uning eksponatlari - qal'a devori bilan o`ralgan to`rt darvozani shahar, saroylar, masjid, madrasa, minorai kalonlar va shunga o`xshash qadimiy imoratlardir. Hozirgi kunda ana shunday 53 ta qadimiy yodgorlik hamda me'moriy obida saqlanib qolgan. Ular ichida tarixdan guvohlik beruvchi alohida mo`zaylar ham joy olgan.

Umumiy maydoni 26 gektarni tashkil etadigan muzey qo`riqxonada 21 doimiy ko`rgazma ishlab turibdi. Ular fondida 55 mingdan ortiq eksponatlar mavjud. Qadimiy eksponatlar, asosan, qurol-aslaxalar, hujjatlar va noyob qo`lyozma asarlardan iborat, shuningdek, arxeologik topilmalar, tangalar, muhrlar, qulolchilik, miskarlik, yog`och o`ymakorligi, zargarlik ashyolari, gilamlar, cholg`u asboblari, liboslar, to`qimachilik buyumlari hamda uch mingdan ziyod tarixiy fotosuratlar to`plamlari xam ko`rgazmalardan munosib o`rin egallagan. Muzey-qo`riqxonada faoliyati davomida moddiy-madaniy merosni ilmiy tavsif qilish, xalqimiz ongida milliy g`urur tuyg`ularini yanada ko`chaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Ichan qal'aga 2014-yilda qariyb 729 ming nafar sayyoh, tashrif buyurgan, shundan 50 ming nafarga yaqini chet ellik sayyohlardir. Ular safi muttasil kengayib borayotgani jahon axdining xalqimiz tarixi va betakror qadriyatlariga bo`lgan cheksiz hurmatini ko`rsatib turibdi.

Keyingi yillarda qal'a yodgorlik muhitini himoya qilish, qo`riqxonada hududidan, tevarak-atrofidan o`rinli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muzey-qo`riqxonada atrofidagi yopik drenaj tarmoqlarini to`liq rekonstruktsiya qilish va yangidan qurish, sizot suvlar po`lati va satxini o`rganishdek amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Fikrimizcha, shakllantirilayotgan turizm-rekreatsion klasteri talablari asosida:

- muzeyi qo`riqxonaning 3D modelini yaratish;
- Google, Yandex kabi ommaviy elektron kartalarda moddiy-madaniy meroslar to`g`risidagi axborotlarni joylashtirish;
- infokiosklar uchun madaniy meroslar to`g`risidagi to`liq ma'lumotlar jamlangan dasturlar yaratish;

- hududda WI-FI zonasi tashkil qilish;
- IT texnologiyalar asosida optik tolali aloqa tarmoqlarini o`rnatish bo`yicha ishlarni amalga oshirish zarur.

Xiva haqida maxsus sayt ochib, obidalarni ko`proq targ`ib qilish, turli turlarda bukletlar, yo`l ko`rsatkichlar, albomlar tayorlash yaxshi samaralar beradi.

Ekoturizmni rivojlantirish baliq ovi, qum barxanlari bo`ylab sayr, suv transporti hizmatidan foydalanish kabi hizmatlarni yo`lga qo`yish sayyohlik sohasidan keladigan daromadlarni oshiradi.

Bu tadbirlarni amalga oshirish turizm klasterini shakllantirishda muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

Turizm tarmog`ini rivojlantirish, shu jumladan, bugungi kun standartlari va talablariga javob beradigan zamonaviy mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalarini (keyingi o`rinlarda - mehmonxonalar) qurish bo`yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, respublikada mehmonxona xo`jaligini rivojlantirishga to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli "O`zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq quyidagi mexanizmlar joriy etiladi:

a) mehmonxona qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi qurilish tugallangandan so`ng investorga mulk huquqi asosida sotilishi mumkin, moddiy madaniy meros ob`ektlarining hududi va muxofaza zonasi hamda qishloq xo`jaligi uchun mo`ljallangan er uchastkalari bundan mustasno;

b) 3 yulduzli toifa uchun 50 ta xonadan kam bo`lmagan va 4 yulduzli toifa uchun 100 ta xonadan kam bo`lmagan xonalar fondiga ega mehmonxona 2022 yil 1 yanvargacha foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, yangi mehmonxonani qurish va jixozlash uchun investorlar xarajatlarining bir qismi O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan qoplanadi. Bunda, investorlar xarajatlarining bir qismini Davlat byudjetidan moliyalashtirish miqdori qo`shimcha ravishda tashkil etilayotgan

xonalar soni 50 mingga yetguniga qadar kelgusi yil uchun Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash jarayonida ushbu miqdorni xar yili indeksatsiya qilgan holda:

3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 40 million so`m;

4 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi xar bir xona uchun 65 million so`mni tashkil qiladi.

Dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxona brendlaridan (mehmonxona brendlarining top-50 reytingiga ko`ra) foydalanish bo`yicha O`zbekiston Respublikasi rezidentlari bo`lgan tashkilotlar uchun royalti franchayzing turfirmasidagi shartnoma kuchga kirgan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan quyidagi xajmda qisman moliyalashtiriladi:

dastlabki 50 ta 3 yulduzli toifaga ega mehmonxona - xar bir mehmonxonaning bitta xonasi uchun yillik 200 AQSh dollari ekvivalentida;

dastlabki 30 ta 4 yulduzli toifaga ega mehmonxona - xar bir mehmonxonaning bitta xonasi uchun yillik 400 AQSh dollari ekvivalentida.

Bunda tashkilotlar uchun royaltini moliyalashtirishning umumiy xajmi ko`pi bilan 10 million AQSh dollari ekvivalentiga teng bo`ladi.

Hududida turizm infratuzilmasi ob`ektlari, shu jumladan, joylashtirish vositalari joylashgan yoki barpo etiladigan moddiy madaniy meros ob`ektlari o`ttiz yilga, biroq o`n yildan kam bo`lmagan muddatga ijaraga beriladi. Bunda ijarachilar yillik ijara xaqiga teng miqdorni o`zlari joylashgan moddiy madaniy meros ob`ektlarini restavratsiya va konservatsiya qilishga yo`naltirish hamda moddiy madaniy meros ob`ektlarini saqlash qoidalariga rioya qilish sharti bilan dastlabki besh yil uchun ijara xaqi to`lashdan ozod etiladi;

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo`llab-quvvatlash davlat jamg`armasi kichik tadbirkorlik subyektlariga turizm infratuzilmasi ob`ektlari, mehmonxonalar va sanitar-gigienik shohobchalar barpo etish va rekonstruktsiya qilish bo`yicha loyihalarni

moliyalashtirish uchun ajratilgan tijorat banklarining kreditlari bo`yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya taqdim qiladi.

Tadbirkorlik subyektlariga namunaviy, shu jumladan, tarmoqli loyihalar asosida zamonaviy sanitar-gigienik shohobchalarni qurish uchun 80-100 kvadrat metr o`lchamda er uchastkalarini elektron auksionga qo`ymasdan olish uchun O`zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasining iltimosnomasiga ko`ra ustuvorlik huquqi taqdim etiladi.

O`zbekistonga keluvchi sayyohlar uchun qator yangiliklar yaratilishi ular sonining oshishida muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- 64 ta mamlakat aholisi 30 kungacha yurtimizda vizasiz bo`ladi.
- 76 ta davlat fuqarolari yengillashtirilgan tartibda elektron viza oladi.
- 100 dan ortiq, mamlakatlar fuqarolari uchinchi davlatga borishda 5 kungacha O`zbekistonda vizasiz bo`lishlari mumkin.

Binobarin, Buyuk Ipak yo`li chorrahasida joylashgan mamlakatimiz jahon tamadduni va ilm-fani rivojiga qo`shgan ulkan xissasi, tarixiy-me'moriy yodgorliklari va benazir allomalari, mehmondo`st xalqi bilan dong taratgan. Bu o`lkaga kelish, tabarruk ziyoratgohlarni o`z ko`zi bilan ko`rishga oshiqayotgan sayyohlar yil sayin ko`paymoqda.

Ma'lumki, Jahondagi musulmonlar soni 1,8 milliardga yaqinni tashkil etib, ularning salmoqli qismi xar yili sayohatga chiqadi. Shuni inobatga olib, mamlakatimizda islom diniga e'tiqod qiluvchi sayyohlarni ko`proq, jalb qilish maqsadida ibodat amallarini bajarishlari uchun zarur qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, mehmonxonalaridagi xonalar jihozlari safidan Qur'oni Karim, joynamoz va qibla ko`rsatkich o`rin oldi. Aeroport va vokzallarda namozxonalar tashkil etildi. Katta yo`l bo`yidagi masjidlar soni ko`paytirilib, ulardagi sharoitlar yaxshilanmoqda.

O`zbekiston musulmonlari idorasi xuzurida "Muslimtur" sayyohlik firmasi tashkil etilib, yurtdoshlarimiz va xorijliklar uchun ziyoratlar uyushtirilmoqda.

Istiqbolda sayyohlar oqimi keskin ortishini hisobga olib, Buxoroda 60 ga yaqin mehmonxonalar, 20 dan ortiq, restoranlar, bir qator istirohat bog`lari,

sayilgohlar qurilishi rejalashtirilgan. Mazkur loyihalar Germaniya, Rossiya, Xindiston, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya kabi mamlakatlarning salohiyatli investorlari bilan birga amalga oshirilmoqda. Natijada bir kunda 10 mingdan ko`proq sayyohlarni qabul qilish imkoniyati paydo bo`ladi. Bundan tashqari, sayyohlar uchun ekoturizm, gastronomik turizm, agroturizm, sport turizmi kabi yangi yo`nalishlar o`zlashtirilib, an'anaviy madaniy-ma'rifiy tadbirlar, festival va ko`rik-tanlovlar tashkil etilishi yo`lga qo`yiladi.

Qabul qilingan Farmon mintaqalarni turizm salohiyatini yuksaltirishga, turistlar oqimini ko`paytirishga, sohani iqtisodiy o`sish manbaiga aylantirishga xizmat qiladi.

3.2.1-jadval

Xorazm viloyatiga 2018-2019 yillar davomida tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning ayrim davlatlar kesimida o`shish tendentsiyasi to`g`risida MA'LUMOT

№	Davlatlar nomi	2017 yil	2018 yil	O`shish		2019 yil	O`shish	
				(+,-)	(%)		(+,-)	(%)
Jami		60 700	123 210	62 553	203%	420 828	297 618	342%
1	Fransiya	7 734	9 236	1502	119%	20 367	11131	221%
2	Italiya	5 780	10 082	4302	174%	21 382	11300	212%
3	Germaniya	6 522	8 484	1962	130%	27 200	18716	321%
4	Yaponiya	4 111	7 020	2909	171%	23 121	16101	329%
5	Ispaniya	3 791	5 901	2110	156%	15 226	9325	258%
6	Rossiya	9 079	12 279	3200	135%	58 832	46553	479%
7	Velikobritaniya	2 663	3 210	547	121%	15 660	12450	488%
11	Avstraliya	884	1 097	213	124%	4 588	3491	418%
13	Belgiya	478	1 325	847	277%	3 044	1719	230%
15	Ssha	1 391	3 104	1713	223%	16 155	13051	520%
17	Shveysariya	852	1 600	748	188%	3 827	2227	239%
19	Kazaxstan	3 233	7 860	4627	243%	36 270	28410	461%

3.2.2-jadval

Xorazm viloyatida 2019 yil davomida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan investitsiya loyihalari to'g'risida
tarmoqlar kesimida
MA'LUMOT

№	Shahar va tumanlar nomi	Loyiha-lar soni	Yaratiladigan quvvatlar		Loyiha qiymati, (mln so'm)
			Xona soni	O`rin soni	
	Jami viloyat bo`yicha	399	874	2 034	244 674
1	Jami joylashtirish vositalari	87	874	2 034	100 998
	<i>Shundan, Mehmonxonalar</i>	28	683	1 496	94 320
	<i>Oilaviy mehmon uylari</i>	59	191	538	6 678
2	Transport infrato`zilma sohasi	93	o`rin soni	1 752	37 047
3	Gastronomik turizm yo`nalishi	8	soni	610	10 800
4	Tibbiyot turizm yo`nalishi	4	o`rin	100	9 680
5	Ekoturizm hududlari tashkil etish bo`yicha	4	ga	115	2 960
6	Hunarmandchilik markazlari	13	soni	13	2 078
7	Ta'mirlangan va qayta qurilgan yo`llar	13	km	36,0	18 732
8	Rekonstruktsiya qilingan moddiy madaniy meros ob`ektlari	26	soni	26	40 800
9	SGShlarini tashkil etish bo`yicha	115	ochko	491	4 910
10	Turoperatorlik faoliyatini tashkil etish bo`yicha	25	soni	23	3 500
11	Ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlarini yangilash	4	km	9,2	5 150
12	Mo`zeylar tashkil etish	4	soni	1	1 300
13	Madaniy tadbirlar	2	soni	2	5 020
14	Turistik ob`ektlarni yoritish tizimi	1	soni	1	1 700

3.2.3-jadval

**Xorazm viloyatida 2019 yil davomida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan investitsiya loyihalar to'g'risida shaharlar va tumanlar kesimida
MA'LUMOT**

№	Shahar va tumanlar nomi	JAMI loyihalar soni	Yaratilgan quvvatlar		Loyiha qiymati, (mln so'm)
			xona soni	o`rin soni	
Jami		399	874	2 034	244 674
1	Urganch shahri	81	140	335	47 806
2	Xiva shahri	166	672	1 581	144 236
3	Bog'ot tumani	19	0	0	5 415
4	Gurlan tumani	9	0	0	930
5	Ko`shko`pir tumani	16	0	0	3 625
6	Urganch tumani	16	0	0	8 765
7	Hazorasp tumani	27	52	88	13 663
8	Xonqa tumani	9	10	30	3 340
9	Xiva tumani	31	0	0	13 701
10	Shovot tumani	13	0	0	2 282
11	Yangiariq tumani	6	0	0	770
12	Yangibozor tumani	6	0	0	140

3.3. Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish istiqbollari

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasida "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo`lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga etkazishdan iborat" deb ta'kidlangan edi.

Muhtaram Prezidentimiz 2020 yil 12-13 mart kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi chog'ida viloyatning turistik salohiyatiga baho berib, uni yuksaltirish asosiy yo`nalishlarini belgilab berdilar.

Xorazm viloyatida bu boradagi ulkan salohiyatdan oqilona foydalanish maqsadida 2020-2021 yillarda viloyatda turizmni rivojlantirish investitsiya dasturi ishlab chiqilgan.

Mazkur dasturda Xorazmning turizm salohiyatini rivojlantirish strategiyasi belgilab berilgan. Unga ko`ra, kelgusi ikki yilda viloyatda 64 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Turizm loyihalari viloyatning barcha tumanlarini qamrab oladi. Innovatsion-investitsion loyihalarning qiymati 1 trln. 97 mln.so`mni tashkil etadi. Mazkur investitsiya loyihalarining ishga tushishi natijasida joylashtirish vositalari soni 211 taga (6958 o`rin), shundan, mehmonxonalar 108 taga (5440 o`rin), oilaviy mehmon uylari soni 103 taga (1140 o`rin) etadi.

Ma'lumki, Xiva jahon miqyosida tarixiy shaharlar durdonalaridan hisoblanadi. Ochiq osmon ostidagi muzey, sharq gavhari deya e'tirof etiladigan bu qadimiy qal'a 1990 yili yurtimizda birinchi bo`lib YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro`yxatiga kiritilgan. "Ichan qal'a"da xalqimizning noyob me'morlik an'analari, ajdodlarimizning turmush tarzi, xunarmandligi, san'ati va madaniyati o`z holicha saqlanib qolgan. Majmuadagi 58 ta tarixiy-madaniy meros ob`ektidan 17 tasida turli muzeylar joylashgan.

Viloyatga 2019 yilda 2,6 mln. nafar, shundan 2,2 mln. nafar mahalliy sayyohlar (2018 yilga nisbatan 1,5 marta ko`p), 154 ta xorijiy davlatlardan 420 828 nafar xorijiy sayyohlar (3,5 marta ko`p) tashrif buyurgan.

Viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish doirasida 2019 yilda 244,7 mlrd. so`m (o`z mablag'lari 158,2 mlrd.so`m, bank kreditlari 50,5 mlrd.so`m, xorijiy investitsiya 2,3 mln.doll, mahalliy byudjetdan 1,2 mlrd.so`m, respublika byudjetidan 12,1 mlrd.so`m, respublika jamg'armalaridan 0,8 mlrd.so`m) miqdoridagi jami 399 ta loyihalar amalga oshirilgan.

"Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturiga muvofiq, viloyatda ta'lim yo`nalishida loyihalar amalga oshiriladi. Jumladan, Xorazm viloyatida Malayziyaning "Binary" universiteti filialini, Urganch davlat universitetida madaniy merosni boshqarish, gid xamroxligi va tarjimonlik yo`nalishlarini ochish rejalashtirilgan. Buning natijasida viloyatda har yili turizm yo`nalishida 50 - 60 nafar malakali kadr tayyorlanadi.

Xorazm lazgisi o`tgan yil dekabr oyida YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro`yhatiga kiritilgan edi. Bugungi kunda Yaponiya, AQSh va Evropa davlatlarida lazgiga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu san'atni yoshlarga etkazish, xorijliklarga mahorat darslari o`tish uchun Xorazmda Lazgi akademiyasi tashkil etiladi. Bu ham xalqimizning nomoddiy madaniy merosini dunyoga targ'ib etishga xizmat qiladi.

Ayni paytda viloyatda 600 dan ortiq baliqchilik fermer xo`jaliklari mavjud. Bu gastronomik turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatdir. Undan foydalanish maqsadida mavjud 71 ta ko`llarda xalqaro standartlar darajasida xizmat ko`rsatishni yo`lga qo`yish orqali sayyohlar oqimini ko`paytirish mo`ljallanmoqda.

Bu yo`nalishni rivojlantirish va kelgusida Xorazmni baliqchilik, ya'ni "Fishing culture" markaziga aylantirish ko`zda tutilgan, Fransiya va Rossiya telekompaniyalari bilan Xorazm baliqchiligiga bag'ishlangan ko`rsatuvlar suratga olingan.

Qishloqlarda yangi ish o`rinlari yaratishda turizmning roli katta. Xorazm misolida "Turistik mahalla", "Turistik qishloq" konsepsiyalari rivojlantiriladi. Buning uchun to`rtta qishloq tanlab olinib, ularda saksonga yaqin mehmon uylari

barpo etish, hududlarning hunarmandligi, agro va etnoturizmini ko`rsatish mo`ljallanyapti.

Viloyatda tematik parklarni rivojlantirish bo`yicha ham loyihalar ishlab chiqilgan. Xorazm zaminida yetishib chiqqan ko`plab buyuk ajdodlarimizning mum xaykallari va foto zonalarini tashkil etiladi. "Ichan qal'a"da o`ndan ziyod ajdodlarimizning xaykallari o`rin oladi. Xiva tumanida "Anor", "Anjir", Yangiariq tumanida "Menonit qishlog'i" tematik parklari barpo etiladi. Natijada ko`plab yangi ish o`rinlari yaratiladi, hududlarning turizm jozibadorligi ortadi. Davlatimiz rahbari taklifiga muvofiq Xivada xonlar shaharchasi barpo etiladi, bu yerda Xorazm xonlari tarixi xalqimiz va xorijiy sayyohlarga etkaziladi. Viloyatda ekstremal va safari turizmi ob`ektlari yaratiladi. Xiva tumanida xavo sharlarida uchish, tualarda sayr qilish yo`lga qo`yiladi.

Hozirgi kunda zamon talabi bo`lgan innovatsion, raqamli texnologiyalarni jalb qilish bo`yicha ham turizm yo`nalishida loyihalar amalga oshiriladi. Xususan, "Tourline" mobil ilovasi - bu ilova orqali turizm sohasidagi barcha xizmat turlarini tez va oson izlab topish imkoniyati yaratiladi. "3D VR Box" dasturi orqali viloyatimizning tarixiy o`tmishini jonlantirish mumkin, ya'ni viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar tarixiy ob`ektlarimizning o`tmishdagi ko`rinishini tomosha qilishlari mumkin bo`ladi. Urganch shahridagi Shovot kanali bo`yidagi kichik turizm zonasini chet ellik, xalqaro toifadagi arxitektorlar, investorlarni jalb qilib, shaharning gavjum, jo`shqin xayot qaynab turgan hududi va qolaversa eng serdaromad markazga aylantirish bo`yicha bosh reja ishlab chiqiladi.

Bir qator chet ellik OAV bilan hamkorlikda Xorazmning xususan, Xiva "Nurullaboy", "Ichan-qal'a", "Ulli-xovli", "Qal'ajiq-qal'a", "Dev-qal'a" va boshqalar hamda ziyorat turizmi ob`ektlari va muzeylarni, shuningdek, turizmni boshqa yo`nalishlari ob`ektlarini targ'ibot va tashviqot ishlari bilan manzilli tadbirlar amalga oshiriladi.

Xorazm viloyatida amalga oshiriladigan bunday innovatsion-investitsion loyihalar natijasida hududning turizm salohiyati yuksaladi, turistlar oqimi ko`payadi, turizm xizmatlari eksporti oshadi, mintaqa iqtisodiy o`sinhga erishadi.

3.3.1-jadval

Xorazm viloyatida 2019 yil davomida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan investitsiya loyihalar to'g'risida tijorat banklari kesimida MA'LUMOT

№	Shahar va tumanlar nomi	JAMI loyiha- lar soni	Yaratilgan quvvatlar		Loyiha qiymati, (mln so'm)
			xona soni	o`rin soni	
Jami		399	874	2 034	244 674
1	Agro bank	9	4	10	5 348
2	Aloqa bank	6	6	20	3 147
3	Asaka bank	15	57	103	8 049
4	Ipoteka bank	1	0	0	600
5	Qishloq qurilish bank	26	151	310	28 339
6	Mikrokredit bank	29	140	324	17 659
7	Milliy bank	48	375	932	63 027
8	Savdogar bank	1	0	0	160
9	O`zsanoat qurilish bank	2	0	0	400
10	Xalq banki	33	108	269	12 662
11	Hamkor bank	11	33	66	8 522
12	Boshqa banklar	218	0	0	96 762

3.3.2-jadval

2020-2021 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar to'g'risida tarmoqlar kesimida YIG'MA MA'LUMOT

№	Shahar va tumanlar nomi	Loyiha soni	Yaratiladigan quvvatlar		Loyiha qiymati, (mln so'm)
			Xona soni	O`rin soni	
	Jami viloyat bo'yicha	244	2 101	4 096	935 164
1	Jami joylashtirish vositalari	71	2 101	4 096	798 360
	<i>Mehmonxonalar</i>	<i>48</i>	<i>2 005</i>	<i>3 884</i>	<i>792 950</i>
	<i>Oilaviy mehmon uylari</i>	<i>23</i>	<i>96</i>	<i>212</i>	<i>5 410</i>
2	Ekoturizm hududlari tashkil etish bo'yicha	41	0	0	37 040
3	Hunarmandchilik markazlari	82	0	0	9 267
4	Tibbiyot turizm yo'nalishi	13	0	0	40 440
5	Shopping turizm yo'nalishi	4	0	0	15 700
6	Gastronomik turizm yo'nalishi	16	0	0	18 290
7	Transport infratuzilma sohasi	3	0	0	2 380
8	Turizm sohasini rivojlantiradigan boshqa loyihalar	14	0	0	13 687

3.3.3-jadval

**2020-2021 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar to'g'risida tijorat banklari kesimida
YIG'MA MA'LUMOT**

№	Tijorat banklari	Loyiha soni	Yaratiladigan quvvatlar		Loyiha qiymati	Yangi ish o'rni
			Xona soni	O`rin soni		
Jami		244	2 101	4 096	935 164	1 923
1	Agro bank	16	189	425	41 947	122
2	Mikrokredit bank	25	110	230	17 260	106
3	Qishloq Qurilish bank	8	100	175	19 060	83
4	Asaka bank	5	124	240	36 660	105
5	Ipoteka bank	43	171	330	73 690	324
6	Halq banki	17	191	360	31 340	126
7	Milliy bank	22	196	378	58 775	216
8	Aloqa bank	4	74	148	11 400	48
9	Turon bank	1	50	100	16 250	15
10	Hamkor bank	11	222	405	52 951	165
11	Infin bank	5	200	325	29 600	133
12	Savdogar bank	0	0	0	0	0
13	O`zsanoat bank	2	20	50	31 000	25
14	Bank tanlanmoqda	85	454	930	515 231	455

Xulosa va takliflar

1. Ko`hna Xorazm tarixan Buyuk Ipak yo`lining markaziy shaharlaridan biri sifatida tanilib, O`zbekistonning eng yuqori turistik salohiyatga ega mintaqalaridan hisoblanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan Xiva shahrining ochiq muzey-shahar sifatida e'tirof etilishi hamda YUNESKO butunjahon merosi ro'yhatiga kiritilishi, nafaqat Xorazm, balki O`zbekistonning jahon turizm bozoriga kirib borishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

2. Xorazm viloyati iqtisodiyotida turizm sohasi katta ahamiyatga ega bo`lib, u yalpi hududiy mahsulot, eksport tarkibi hamda ish o`rinlari yaratishda salmoqli hissaga ega. Xorazm vohasida neolit davridan to o`n to`qqizinchi asrgacha bo`lgan davrni qamrab oluvchi 255 dan ortiq madaniy meros yodgorliklari qayd etilgan bo`lib, ulardan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi arxitektura, 66 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas qadamjolaridir. Bu noyob turistik resurslar asosan Xiva va Urganch shaharlarida joylashgan bo`lsada, viloyatning boshqa tuman va shaharlarida ham katta ulushni egallaydi.

3. Mintaqa ma'lum darajada rekreatsion resurslarga ham ega. Masalan, Xiva tumanidagi G'ovukko'l va Eshonravot ko'llari bo'yida sayyohlik majmui yaratish va baliqchilikni rivojlantirish, chodirlar, suzish vositalari ijarasi xizmatlari hamda cho`milish havzalari infratuzilmasini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu dam olish zonasini tashkil etish nafaqat mintaqaning, balki Qoralqolpog'iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlari aholisining ham hordiq chiqarish maqsadida qiziqishini uyg'otadi. Kelajakda esa xizmat ko`rsatish va servis sifatini oshirish evaziga bu yerga boshqa viloyatlar va chet ellik turistlarni ham jalb etish mumkin.

4. Mintaqada turizmni rivojlantirishning yana bir yo`nalishi, bu Xazorasp, Bog'ot, Xonqa, Urganch va Gurlan tumanlarida shifobaxsh er osti suvlarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Bunday shifobaxsh suv havzalari va konlari negizida istiqbolda mintaqada tibbiy xizmatlarni ham rivojlantirish mumkin.

5. Xorazm viloyati turistik salohiyatini targ'ib qilish borasida ko`proq chet el tajribasini o`rganish, reklama va marketing ishlarini yangicha tashkil qilish, har bir

tarixiy obidalarga tegishli o`ziga xos afsonalarni yozib olish va tarqatish hamda yangi tadbir va yo`nalishlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasi. lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 22 dekabrda Parlamentga Murojaatnomasi. lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 21 dekabrda Parlamentga Murojaatnomasi. lex.uz
4. Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili Davlat Dasturi. lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristikalar strategiyasi. 2017 yil 7 dekabr
6. Boltaboev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. -T.: "Barkamol fayz media" nashriyoti 2018 y. 70-6.
2. Porter, M. E. Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77-90, 1998.
3. Turistskie klasterы ponyatie, tseli, struktura. <http://www.stihi.ru/2015/05/20/1442>
4. Navruz-Zoda V., Ibragimov N. Ways of Applying Destination Management Concepts to the Development of Internal Tourism in Uzbekistan //International Tourism and Hospitality in the Digital Age. USA. -2015.-174-192 pp.
5. Navruz-Zoda B.N., Ibragimov H.C. "Turistik xuddularni shakllantiruvchi omillar". "Geografiya fanining nazariy-amaliy muammolari" Respublika ilmiy nazariy-amaliy konferentsiyasi materiallari. -Buxoro. 2006. 130-133-betlar.
6. Ibragimov N.S. Destinatsion menejment: davlat miqyosida tizimni bozor usulida boshqarish san'ati (monografiya). Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2014, 76-80 bb.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristikalar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasining konun hujjatlari toplami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

8. Ruzmetov Sh., Saidov O., Baxtiyarov Sh. Razvitie smejnyx otrasley i vspomogatelnyx proizvodstv regiona na baze mestnogo predprinimatelstva. "Orol bo`yi zonasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik muammolari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Nukus, 2015 yil 6-7 may.

9. Ruzmetov Sh., Allakuliev T., Baxtiyarov Sh. Vnedrenie innovatsionnyx texnologiy - osnova ustoychivogo i intensivnogo razvitiya agrarnogo sektora regiona. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining demografik muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Urganch Davlat universiteti. 3 mart 2015 yil. I-jild. Urganch, 2015.

10. Ruzmetov Sh.B., Baxtiyorov Sh. Innovatsionno-investitsionnye aspekty povysheniya konkurentosposobnosti regiona. Innovatsion rivojlanish asosida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash: Muammolari, echimlari va istiqbollari ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2015 y 17-18 iyun Karshi shahri Toshkent-2015.

11. Ruzmetov B., Abdullaev I., Baxtiyorov Sh. Etapy formirovaniya klasternoy strategii razvitiya. YOsh olimlar respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi 2016 yil 29-30 yanvar Termiz-2016.

12. Ruzmetov Sh., Saidov A., Baxtiyorov Sh. Etapy organizatsii proizvodstvennyx klasterov v regione. mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida mintaqani kompleks va barqaror rivojlantirish. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to`plami. Urganch. 18 noyabr 2015 y.

13. Ruzmetov B., Abdullaev I., Baxtiyorov Sh. Etapy formirovaniya klasternoy strategii razvitiya. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash – yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning eng muhim asosi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to`plami. Urganch. 25-26 noyabr 2015 yil. 2-jild.

14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli "O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal

rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi konun hujjatlari tuplami, 2016 y.

15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5-dekabrda "Chorvok" erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risidagi PF-5273-sonli Farmoni."Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 6 dekabr, № 245 (6939)

16.Porter M. The competitive advantage of nations. - New York: The Free press. 1990. -P.270 p.

17. Rudchenko B.H. Klasterы v turizme: osobennosti klassifikatsii, protsess formirovaniya i metody otsenki // Obщество. Sreda. Razvitiye. - 2016, № 4. - S. 13.

18. Egamov B., Baxtiyarov Sh. Mintaqada mashinasozlik va engil sanoat korxonalarida autsorsing xizmatlarini tashkil. Respublikanskaya nauchno-metodicheskaya konferentsiya molodыx uchyonyx TerDU 31 marta-1 aprelya 2017 g 1-chast Termiz 2017.

19.Xudayberganov J., Baxtiyarov Sh. Mintaqa qurilish industriyasida iqtisodiy samarali va ekologik omillardan foydalanish imkoniyatlari. Respublikanskaya nauchno-metodicheskaya konferentsiya molodыx uchyonyx TerDU 31 marta-1 aprelya 2017 g 1-chast Termiz 2017.

20.B.Ruzmetov., A.Kadirov., I.Abdullaev., A.Axmedieva., B.Egamov., Sh.Ruzmetov., Sh.Baxtiyarov. Mejostraslevыe klasterы i ix vliyaniye na rost konkurentosposobnosti regionalnoy ekonomiki Monografiya. "Lesson Press"

21. Sh.Baxtiyarov. Perspektivy razvitiya turisticheskoy infrastruktury v regione. Regionalnaya ekonomika: innovatsionnyye texnologii investitsii i ekologiya. Toshkent 2017 yil 24 noyabr.

22.Egamov B., Baxtiyarov Sh. Mintaqada mashinasozlik va engil sanoat korxonalarida autsorsing xizmatlarini tashkil. Respublikanskaya nauchno-metodicheskaya konferentsiya molodыx uchyonyx TerDU 31 marta-1 aprelya 2017 g 1-chast Termiz 2017

23. Egamov B, Baxtiyarov Sh. Formirovaniye potentsialnyx klasterov v tekstilnoy otrasli Xoraezmskoy oblasti. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Xarakterlar strategiyasida iqtisodiyotni

yanada liberallashtirishning ustuvor yo`nalishlari" Urganch, 2017 yil 25 noyabr, 2 kism.

24.Nazarov J, Baxtiyarov Sh. Mintaqada innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirish omillari. Regionalnaya ekonomika Innovatsionnie texnologii, investitsiya i ekologiya Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari., Urgench 2017 yil 24 noyabr.

25.Bekchanov D, Ibragimov D, Baxtiyarov Sh. Vozmojnosti formirovaniya toчек proizvodstvennogo rosta v regione. X Forum ekonomistov Uzbekistana Toshkent 2018.

26.B.Ruzmetov, Sh.Baxtiyarov. Svyatые mesta Xorezmskogo regiona i ix rol v razvitii palomnicheskogo turizma. "The renaissance of pilgrim tourism in the crossroads of the great silk road" Samarkand, may 24-25 may, 2019

27.B.Ruzmetov, Sh.Ruzmetov, Sh.Baxtiyarov. Formirovaniya turistichecko-rekreatsiionnogo klastera v Xorezmskom regione Respubliki Uzbekistan. "The renaissance of pilgrim tourism in the crossroads of the great silk road" Samarkand, may 24-25 may, 2019.

28. Bakhtiyar Ruzmetov, Sherzodbek Ruzmetov, Shohzod Bakhtiyarov. Regional characteristics of the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan and in the main points of the great silk road. Journal of Critical Reveiews. ISSN 2394 – 5125 Vol 7, Issue 12, 2020.

29. Internet manbalari:

30. Hukumat portal - www.gov.uz

31. O`zbekiston Havo Yo`llari" Milliy Aviakompaniyasi - www.uzairways.com

32. O`zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi - www.mfa.uz/eng

33. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki - www.cbu.uz

34. O`zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi – www.madaniyat.sport.uz

35. O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi – www.mineconomy.uz

36. O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, Investitsiyalar va Savdo Vazirligi - www.mfer.uz/

37. O`zbekiston Respublikasi Matbuot va Axborot Milliy Agentligi -
www.uza.uz
38. O`zbekiston Respublikasi biznes yangiliklari portali -
www.uzreport.comwww.adme.ru
39. www.airlinequality.com
40. www.airport-tashkent.uz/
41. www.airport-tashkent.uz/aeroporti_uzbekistana/
42. www.antimon.uz
43. www.brand.uz
44. www.chartsbin.com
45. www.iata.org
46. www.icao.org
47. www.marketing.spb.ru
48. www.navoi-airport.com/ru/
49. www.pr.uz
50. www.stat.uz
51. www.tourlib.net
52. www.uzairways.com
53. www.uzbekistan-airlines.de
54. www.uzbektourism.uz
55. www.wikipedia.org
56. www.worldbank.org
57. www.wto.org
58. www.ziyonet.uz

